

**KORRUPSIYANING HAR QANDAY
KO'RINISHIGA MUROSASIZ BO'LIH
KUNDALIK HAYOT TARZIMIZGA
AYLANISHI SHART.**

Shavkat MIRZIYOYEV

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga
qarshi kurashish agentligi



TAHRIRIYAT KENGASHI

Bosh muharrir

Burxanov Akmal Eshondedaevich – yuridik fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori

TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI

Narbayera Tanzila Kamalovna – Sotsiologiya fanlari doktori, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati raisi, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi raisi

Saidov Akmal Xolmatovich – yuridik fanlar doktori (DSc), akademik, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi spikeri birinchi o'rinbosari, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi raisi o'rinbosari

Anga Timilsina – BMT Korrupsiyaga qarshi kurashish global dasturi maslahatchisi

Goran Klemenich – "Mintaqaviy muloqot" xalqaro nodavlat notijorat tashkiloti eksperti

Yodgorov Xolmo'min Buvraboievich – O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi raisi

Xakimov Obid Arzikulovich – Iqtisodiyot fanlari doktori, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi direktori.

Rustambayev Mirzayusup Xakimovich – yuridik fanlar doktori (DSc), professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig'i

Tuxtasheva Umida Abdilovna – Yuridik fanlar doktori (DSc), professor, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori o'rinbosari

Kolenko Yevgeniy Vyacheslavovich – O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi boshlig'i

Salayev Nodirbek Saparbayerovich – Yuridik fanlar doktori (DSc), professor, Toshkent davlat yuridik universiteti

Tursunov Axtam Salomovich – Yuridik fanlar doktori, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi, Huquqbuzarliklar profilaktikasi kafedrasini professori.

Bekmuradov Mansur Bobomuradovich – Sotsiologiya fanlar doktori (DSc), professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi Boshqaruv sotsiologiyasi va psixologiyasi kafedrasini mudiri.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2021 yil 15 sentyabr kuni ro'yxatga olingan.

Guvohnoma № 1210

TAHRIRIYAT MANZILI:

100070 Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Sh. Rustaveli, 8 A uy

Telefon: +(998)71 202 04 02

Pochta: info@anticorruption.uz

Internet manzili: www.uacd.uz

Copyright © 2021 O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi. Bu asar [Creative Commons «Attribution» \(«Atributatsiya»\) 4.0](#) shartlari asosida tarqatilgan.

UZBEKISTAN ANTI-CORRUPTION DIGEST

axborot-tahliliy jurnali

ISSN 2181-3345**MUNDARIJA****KIRISH SO'ZI**

Dimovska M. – BMT Taraqqiyot Dasturining O'zbekistondagi Doimiy Vakili.....3

KIRISH MAQOLASI

NARBAYEVA T.K. – Korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari.....4

DAVLAT SIYOSATI

BURXANOV A.E. – O'zbekistonda korruptsiyaga qarshi kurashish xalq va davlat idoralarining umumiy maqsadiga aylandi ...7

QONUNCHILIK

Davletov R.Q. – O'zbekiston korruptsiyani taraqqiyotga jiddiy tahdidlardan biri deb biladi11

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH

Komilov K.F. – Sud mustaqilligi va sud tizimida korruptsiyaning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar14

Xasanov O.A. – Davlat xizmatiga ochiq yo'l.....20

OAV MINBARI

Xodjayev A.A. – Axborot olish va so'z erkinligini ta'minlash mamlakat taraqqiyotining eng muhim shartidir.....23

FUQAROLIK JAMIYAT INSTITUTLARI

Tursunov A.S. – Korruptsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki26

Bekmurodov B.M. – Korruptsiyaga qarshi kurshda jamoatchiliknindning roli29

MEHMON

Vladimir Kozin: "Islohotlar kompleks tarzda olib borilishi hamda korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish masalalarini qamrab olishi kerak"33

DAYJEST

"O'zbekiston Respublikasida korruptsiyaga qarshi kurashish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.....37

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning "Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korruptsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.....38

Agentlik direktorining "Korruptsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i qabul qilindi.....38

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar korruptsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashlari faoliyati tashkil etildi.....39

"O'zbekiston biznes hamjamiyatida halollik" biznes forumi o'tkazildi.....39

Copyright © 2021 O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi. Bu asar [Creative Commons «Attribution» \(«Atributatsiya»\) 4.0](#) shartlari asosida tarqatilgan..

UZBEKISTAN ANTI-CORRUPTION DIGEST**KIRISH SO'ZI***Hurmatli o'quvchilar!*

O'zbekiston Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligining axborot dayjestiga xush kelibsiz!

Mamlakatda korruptsiyaga qarshi kurashish borasidagi muhim o'zgarishlarning guvohi bo'layotganimizdan barchamiz xursandmiz. Hukumat ushbu jinoyatning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirmoqda. Bu harakatlar pandemiya va karantin vaqtida ham davom ettirildi. Milliy rivojlanish va investitsiya dasturlariga korruptsiyaga qarshi kurashish qoidalarini va tegishli vazifalarni kiritish odatiy amaliyotga aylandi.

Qisqa vaqt ichida korruptsiyaga qarshi kurashishning qonunchilik bazasi takomillashtirildi; Korruptsiyaga qarshi kurashish dasturlari qabul qilindi; Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi. Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Milliy Kengash va hududlardagi korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hududiy kengashlar barcha darajadagi organlarni muvaffaqiyatli muvofiqlashtirish va hamkorlik qilish ustida ish olib bormoqda. Ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati korruptsiyaga qarshi samarali kurashish va jamoatchilik nazorati tizimining muhim unsuriga aylanmoqda. Ochiqlik va oshkoralik bosqichma-bosqich davlat boshqaruvining asosiy va o'zaro bog'liq tamoyillariga aylanib bormoqda.

Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi ushbu tamoyillarni davlat jarayonlariga tatbiq etish bo'yicha vakolatli organ sifatida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar to'g'risida aholini doimiy va imkon qadar kengroq xabardor qilib borish naqadar muhimligini yaxshi tushunadi. Shu sababli, bu yangi - korruptsiyaga qarshi kurashish mavzusidagi muntazam elektron axborot dayjestini chiqarish tashabbusi vujudga keldi.

Dayjest - axborot byulleteni bo'lib o'quvchiga, yuqori sifatli ma'lumotlarni taqdim etadi, korruptsiyaga qarshi islohotlar sohasida va ular atrofida sodir bo'layotgan barcha jarayonlar haqida batafsil ma'lumot beradi.

U maqolalarni oson o'qishga imkon beradi, asosiy ma'lumotlar bir necha qisqa paragraflardan iborat matnda, uchta tilda - o'zbek, ingliz va rus tillarida, ham mamlakat ichida, ham mamlakat tashqarisida keng kitobxonlar ommasi uchun nashr etiladi.

Agentlikni ushbu yangi tashabbus bilan tabriklaymiz hamda muvaffaqiyat va keng auditoriyaga ega bo'lishini tilaymiz.

Ushbu yangi dayjestga obuna bo'ling va korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha eng ishonchli va muhim yangiliklardan xabardor bo'ling.

Yoqimli mutolda tilaymizi!

Matilda Dimovska,
BMT Taraqqiyot Dasturining O'zbekistondagi Doimiy Vakili

KIRISH MAQOLASI

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASIDAGI DAVLAT SIYOSATINING ASOSIY YO'NALISHLARI**Tanzila Kamalovna NARBAYEVA***

* O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi

Yuborilgan: 2021 yil 31 oktyabr
Qabul qilingan: 2021 yil 30 noyabr
Nashr etilgan sana: 2021 yil 9-dekabr

Copyright © 2021 T. Narbayeva, litsenziat O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi. Bu asar [Creative Commons «Attribution» \(«Atributatsiya»\) 4.0](#) shartlari asosida tarqatilgan.

IQTIBOS KELTIRISH TARTIBI:

Narbaeva, T. 2021. Korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari. Uzbekistan Anti-Corruption Digest. 1, 1 (Dec. 2021), 4–6.
DOI: <https://doi.org/10.47689/uacd-2181-3345-vol1-iss1-pp4-6>



Korruptsiya – jamiyatni, millatni ich-ichidan yemiradigan, davlatlarni tanazzulga olib keladigan illatdir.

Korruptsiya mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalariga ta'sir qilib, iqtisodiy sohada raqobat mexanizmlarining ishlamasligiga, mulk huquqining poymol qilinishiga, ijtimoiy sohada xalqning tabaqalanishiga, qonun ustuvorligi tamoyilining obro'sizlanishiga, siyosiy sohada esa xalqning hukumatga ishonchi yo'qolishiga olib keladi.

Shu boisdan ham Davlat rahbari Shavkat Mirziyoyev o'z vakolatiga kirishishi bilan Prezident sifatida imzo chekkan eng birinchi hujjat "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bo'ldi.

Qonun bilan korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilandi.

Xususan, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korruptsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish, korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, chek qo'yish, ularning oqibatlarini, imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlash shular jumlasidandir.

O'tgan qisqa davr mobaynida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy mexanizmlar yaratildi.

Jumladan, davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida korrupsiyaviy omillarga barham berishga qaratilgan 80 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan maxsus vakolatli davlat organi – Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi.

Parlamentning ikkala palatasida korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha alohida qo'mitalar faoliyati yo'lga qo'yildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ul organlar va tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish, sohada olib borilayotgan ishlarning holatini kompleks o'rganish, qonunchilikni takomillashtirish, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi va uning hududiy kengashlari tashkil etildi.

Milliy kengashga rahbarlik qilish vazifasining aynan Senatga yuklatilishidan ko'zlangan maqsad ham sohada ta'sirchan parlament, ya'ni xalq nazoratini o'rnatish edi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida boshlagan ishlarimiz ortga qaytmas tus oldi. Bu to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqida ham alohida ta'kidlab o'tildi.

Xususan, bu borada aybdorlarni huquqiy javobgarlikka tortish bilan cheklanib qolmasdan, tizimli preventiv choralarni ko'rish, shu asosda korrupsiyaning nafaqat oqibatlarini, balki sabablarini oldindan bartaraf etish bo'yicha ta'sirchan choralarni amalga oshirish zarurligi qayd etildi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda byurokratik to'siqlarni bartaraf etish va "yashirin iqtisodiyot"ni qisqartirish choralari ko'rilmogda, oliy ta'lim, sog'liqni saqlash, qurilish hamda davlat xaridlari sohalarida "Korrupsiyasiz soha" loyihalari amalga oshirilmogda.

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalari va ustav kapitalida davlat ulushi bo'lgan korxonalar, shu jumladan, banklarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat ("komplayens-nazorat") tizimi joriy etilmogda.

Korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarning ochiq elektron reyestrini yuritish yo'lga qo'yilmogda. Bu esa reyestriga kiritilgan shaxslarning davlat xizmatiga kirishi va davlat mukofotlari bilan taqdirlanishi, saylanadigan va alohida tartibda tayinlanadigan lavozimlarga nomzodlarining ko'rsatilishi kabi boshqa bir qator huquqlardan foydalanishini taqiqlamogda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalangan holda ko'plab sohalarda, ayniqsa, davlat xizmatlarini ko'rsatishda korrupsiya va inson omilini kamaytirishga, shuningdek, turli suiiste'molchiliklarning oldini olishga qaratilgan ta'sirchan mexanizmlar joriy etilmogda. Bugungi kunda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali aholiga 150 dan ortiq davlat xizmatlari ko'rsatib kelinmogda.

Raqamli va onlayn-texnologiyalar imkoniyatlaridan keng foydalanish orqali davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining jamoatchilik oldidagi hisobdorligi oshdi, ular faoliyatining ochiqligi ta'minlanmogda. Bu esa korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishning muhim instrumenti bo'lmish jamoatchilik nazorati institutining rivojlanishiga turtki bermogda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida olib borilayotgan islohotlar xalqaro hamjamiyat va reyting yurituvchi tashkilotlar tomonidan ham e'tirof etilmogda.

Masalan, "Transparency International" xalqaro tashkilotining Korrupsiyani qabul qilish indeksida O'zbekiston 180 ta mamlakat orasida 2017-yilda 157-o'rinni egallagan bo'lsa, 2020-yilga kelib, mamlakatimiz o'zni 11 pog'onaga yuqorilab, 146-o'ringa ko'tarildi.

"Jahon odil sudlov loyihasi" xalqaro nohukumat tashkiloti tomonidan yuritiladigan Huquq ustuvorligi indeksining "korrupsiya mavjud emasligi" indikatori bo'yicha O'zbekistonning o'zni 2021-yilda o'tgan yilga nisbatan 19 pog'onaga ko'tarilib, 139 ta mamlakat orasida 70-o'rinni egalladi.

Y. Yana bir misol. "Open data Inventory" xalqaro nohukumat tashkiloti tomonidan yuritiladigan Ochiq ma'lumotlar reytingida O'zbekiston 2020-yilda 187 ta mamlakat orasida 44-o'rinni, Markaziy Osiyoda esa 1-o'rinni egallab, Osiyo davlatlari ichida eng katta o'sish kuzatilgan mamlakat bo'ldi.

Korrupsiyaga qarshi murossasiz kurash yangi bosqichga ko'tarilganligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan BMT Bosh assambleyasining 75-sessiyasida alohida e'tirof etildi.

Ta'kidlash joizki, Yangi O'zbekistonni barpo etish borasida Davlat rahbari tomonidan olib borilayotgan siyosat zamirida ham O'zbekistonni aynan korrupsiyadan holi mamlakatga aylantirish yotibdi.

Buning uchun butun jamiyatimizda bu illatga qarshi barcha sog'lom kuchlarni birlashtirish, jumladan, parlament, ijro hokimiyati va mahalliy vakillik organlari hamda jamoatchilikning yaqin hamkorligini ta'minlash hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

DAVLAT SIYOSATI

O'ZBEKISTONDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH XALQ VA DAVLAT IDORALARINING UMUMIY MAQSADIGA AYLANDI

Akmal Eshondayevich BURXANOV*



* O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori

Yuborilgan: 2021 yil 31 oktyabr
Qabul qilingan: 2021 yil 30 noyabr
Nashr etilgan sana: 2021 yil 9-dekabr

Copyright © 2021 A. Burxanov, litsenziat O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi. Bu asar [Creative Commons «Attribution» \(«Atributatsiya»\) 4.0](#) shartlari asosida tarqatilgan.

IQTIBOS KELITIRISH TARTIBI:

Burxanov A. 2021. O'zbekistonda korruptsiyaga qarshi kurashish xalq va davlat idoralarining umumiy maqsadiga aylandi. Uzbekistan Anti-Corruption Digest. 1, 1 (Dec. 2021), 7–10.
DOI: <https://doi.org/10.47689/uacd-vol1-iss1-pp7-10>.



O'zbekistonda so'nggi yillarda olib borilayotgan ichki va tashqi siyosatdagi ochiqlik va o'zaro teng hamkorlik tamoyili natijasida mamlakatimizning dunyo sahnasidagi nufuzi butunlay o'zgardi.

Xalqaro hamjamiyat tomonidan O'zbekistonning har bir harakati va islohotlar yo'nalishi qiziqish bilan kuzatilmoqda. Bu borada asosiy e'tibor inson huquqlarini ta'minlash, faol fuqarolik jamiyatini shakllantirish, so'z erkinligi uchun sharoitlar yaratish, iqtisodiyot sektorida o'sish ko'rsatkichlari va aholi farovonligini ta'minlash kabi masalalarga qaratilmoqda.

E'tiborlisi, xorijiy ekspertlar va xalqaro hamkorlar bilan muloqot jarayonida yana shu narsa ayon bo'lmoqdaki, korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida olib borayotgan islohotlarimiz ham yuqori baholanmoqda.

Davlat rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan korruptsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirildi. Barcha sohalarda bo'lgani kabi ushbu sohada ham tizimli va uzviy o'zgarishlar amalga oshirildi.

Xususan, korruptsiyaga qarshi kurashishning qonunchilik bazasini takomillashtirish, institutsional asoslarini yaratish, sohalarni raqamlashtirish, davlat boshqaruvi organlari faoliyatini shaffoflashtirish hamda jazo muqarrarliligi tamoyilini ta'minlash kabi yo'nalishlardagi islohotlar shular jumlasidandir.

Quyida mazkur yo'nalishlarning eng asosiy jihatlariga to'xtalib o'tamiz.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning qonunchilik bazasini takomillashtirish

O'tgan davr mobaynida O'zbekiston korrupsiyaga qarshi kurashish global jarayonining faol ishtirokchisiga aylandi hamda hozirda milliy va xalqaro miqyosda tegishli huquqiy bazani mustahkamlamoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2008-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga qo'shilishi va 2010-yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti Korrupsiyaga qarshi kurashish tarmog'ining Istanbul harakatlar dasturiga qo'shilishi xalqaro darajadagi asosiy va muhim qadamlardan biri bo'ldi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishni milliy darajada tashkillashtirish maqsadida zarur chora-tadbirlar va milliy qonunchilik hujjatlari majmuasi qabul qilindi hamda bu sohadagi milliy huquqiy doktrina shakllantirildi.

Masalan, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun, 2017-2018-, 2019-2020- va 2021-2022-yillarga mo'ljallangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturlari hamda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida 80 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, "Davlat xaridlari to'g'risida"gi, "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi, "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi, "Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida"gi, "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonunlar ham mohiyatan korrupsiyaga qarshi kurashish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Shu bilan birga 2021-yil davomida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid va davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlashga qaratilgan bir qator muhim hujjatlar qabul qilindi.

Jumladan, davlat organlari tizimining ochiqligi va shaffofligini ta'minlashni yangi darajaga olib chiqqan "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident Farmoni qabul qilindi.

Shu bilan birga, 2021-yilning iyul oyida Davlat rahbari tashabbusi bilan qabul qilingan ikki muhim hujjat "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni hamda "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qarori tasdiqlandi.

Ushbu hujjatlar bilan korrupsiyaga qarshi kurashishga kompleks yondashgan holda institutsional o'zgarishlar amalga oshirilishi belgilangan.

Ularda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ham preventiv mexanizmlar, ham korrupsiyaviy xatti-harakatlar uchun jazo muqarrarligini ta'minlash, davlat xizmatchilarining mas'uliyati va javobgarligini oshirishga qaratilgan mexanizmlar o'z aksini topgan.

Hujjatlar bilan zamonaviy preventiv mexanizmlar, ya'ni davlat organlari faoliyatining yanada ochiqligini ta'minlash, bunda davlat xizmatchilarining mol-mulki va daromadlarini deklaratsiyalash tizimidan tortib, davlat xaridlarining yanada shaffof amalga oshirilishini belgilash, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, davlat xizmatiga ishga qabul qilishni ochiq tanlovlar asosida amalga oshirish kabi xalqaro tan olingan standartlarning joriy etilayotganini ta'kidlash lozim.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning institutsional asoslari shakllantirilmoqda

2020-yil 29-iyun kuni soha rivojiga turtki bo'ladigan ikki muhim hujjat – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. Mazkur hujjatlar bilan korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshiruvchi yangi tuzilma – Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligi tashkil etildi.

Mazkur Farmon bilan mustaqil davlatda korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olishga maxsus vakolatli davlat organining mavjud bo'lishi lozimligi talabi aks etgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti (bundan buyon matnda BMT deb yuritiladi) Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi 6- va 36-moddalarining hayotga tatbiq etilishi ta'minlandi.

Agentlik davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa nodavlat sektor vakillarining birgalikdagi samarali faoliyatini ta'minlash, shuningdek, mazkur sohadagi xalqaro hamkorlik uchun mas'ul bo'lgan maxsus vakolatli davlat organi etib belgilandi.

Agentlik to'g'ridan-to'g'ri Prezidentga bo'ysunadi va parlament oldida hisobdordir.

Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish, mamlakatda korrupsiya holatini tizimli tahlil qilish, normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizasi samaradorligini ta'minlash, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hamda mamlakatning imijini mustahkamlash Agentlikning asosiy vazifa va **faoliyat yo'nalishlari** etib belgilandi.

Shuningdek, yuqoridagi Farmon bilan Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi tashkil qilindi.

Uning asosiy vazifasi etib korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish etib belgilandi.

Xuddi shu vazifani hududlar miqyosida ham amalga oshirish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashlari tashkil etildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xorij amaliyoti uyg'unligida mazkur illat ko'rinishlarining sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etishga qaratilgan samarali mexanizmlari joriy etilmoqda.

– 2020–2021-yillarda barcha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarida korrupsiyaga qarshi ichki idoraviy nazorat tizimlarini bosqichma-bosqich yo'lga qo'yish choralari ko'rildi. Natijada, korrupsiya xavf-xatarlarini o'z vaqtida aniqlash va chek qo'yish, uning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsion xavf-xatarlar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan soha-yo'nalishlar aniqlanmoqda.

Raqamlashtirish va oshkoralikni ta'minlash korrupsiyaning oldini olishning asosiy vositalari sifatida

Mamlakatimizda davlat boshqaruviga ochiqlikni joriy etish, axborotlarning umumfoydalanish uchun ochiqlik holati, ma'lumotlarning oshkoralik va sifat darajasini xalqaro talablarga muvofiqlashtirish, barcha xizmatlarni raqamlashtirish sohasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

O'tgan qisqa vaqt davomida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ommaviy muhokama qilish, davlat budjeti va qarzi, shuningdek, davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rish va real vaqt rejimida kuzatish imkonini beruvchi onlayn platformalar ishga tushirildi. Ochiq ma'lumotlar portali faoliyati sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarildi, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali, elektron litsenziyalash tizimi va "Mening fikrim" jamoaviy murojaatlar portali faoliyati yo'lga qo'yildi.

Ushbu islohotlar natijasida quyidagi amaliy natijalarga erishilganini ta'kidlash lozim:

Birinchidan, ommaviy axborot vositalari, jurnalist va blogerlar erkinligini ta'minlashga, davlat idoralarining jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari uchun ochiq bo'lishiga, rahbarlarning kundalik faoliyatida jurnalistlar bilan yaqin muloqot va hamkorlik o'rnatishiga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar ko'rildi.

Ikkinchidan, raqamli va onlayn texnologiyalarning keng qo'llanilishi davlat organlarining jamoatchilik oldidagi hisobdorligini oshirdi. Yer uchastkalari va davlat aktivlarini, shuningdek, boshqa bir qator vositalarni onlayn auksionda sotish, elektron notariat tizimlari yo'lga qo'yildi hamda doimiy takomillashtirilib borilmoqda.

Uchinchidan, davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligi, axborot olish erkinligi ta'minlanmoqda. Tashkilotlar faoliyatiga oid barcha zaruriy ma'lumotlar, hisobotlar, moliyaviy xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlar, hokimlar qarorlari ochiq qilinishi natijasida samarali jamoatchilik nazorati o'rnatilmoqda.

To'rtinchidan, davlat xizmatchilarining lavozimlarga tayinlanish jarayonlari barcha uchun ochiq qilib, tanlov asosida amalga oshirilmoqda va bu jarayonlarni istalgan fuqaro kuzatish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Beshinchidan, har bir davlat organi, jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzurida Jamoatchilik kengashlari tashkil etildi. Albatta, bu kabi kengashlar davlat tashkilotlari faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazoratini o'rnatishda muhim bo'g'inga aylanmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida yaqin istiqbolda belgilangan asosiy vazifalar

Albatta, korrupsiyaga qarshi kurashish muntazam ravishda o'zgarishlar va yangilanishlarni amalga oshirishni talab etadi. Zamon shiddatidan ortda qolganlarni esa korrupsiya illati mag'lub etishi tayin.

Shu boisdan oldimizda hali qator muhim vazifalar turibdi.

Xususan, davlat xizmatchilarining daromadlari va mol-mulkini deklaratsiya qilish tizimi yo'lga qo'yish rejalashtirilgan. Bu borada Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan manfaatdor idoralar bilan birga sohani tartibga soluvchi qonun loyihasi ishlab chiqildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha barcha maqsadlarimizni o'zida aks ettiradigan uzoq va o'rta muddatga mo'ljallangan Milliy strategiyani qabul qilish rejalashtirilgan va uning ham dastlabki loyihasi ekspertlar, ilmiy va akademik doira vakillari hamda nodavlat-notijorat tashkilotlari ishtirokida muhokamadan o'tkazildi.

2022-yildan Korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarning ochiq elektron reyestri yuritilishini yo'lga qo'yish ustida ishlanmoqda. Bu institut ham korrupsiyaning oldini olish jarayonlariga keng jamoatchilikni jalb etish imkoniyatini beradi.

Bundan tashqari, davlat organlarida, shu jumladan, hududlarda korrupsiya tarqalganlik darajasini baholash tizimi joriy etilmoqda. Bu tizimning ahamiyatli tomoni shundaki, keng aholi qatlami, tadbirkorlik sub'yektlari, shu jumladan, O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar, mahalliy va xalqaro ekspertlar o'rtasida so'rovnomalar o'tkaziladi hamda so'rovnomalar natijalarini tahlil qilish asosida davlat organlari va hududlarda korrupsiyaning tarqalganlik darajasi aniqlanadi.

Korrupsiyaga qarshi qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi ayrim normalarini milliy qonunchiligimizga implementatsiya qilish hamda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish tarmog'ining Istanbul harakatlar rejasi doirasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish davom ettiriladi.

Albatta, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan har bir islohot, o'zgarish xalqimizga foydasi tegish yoki tegmaslik prizmasi orqali saralanib, hayotga tatbiq etilmoqda. Korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonlarida bu nihoyatda muhim hisoblanadi. Zero, korrupsiyaga qarshi kurashish va uni bartaraf etish O'zbekiston xalqi va davlat idoralariining mushtarak maqsadiga aylanib ulgurdi.

QONUNCHILIK

O'ZBEKISTON KORRUPSIYANI TARAQQIYOTGA JIDDIY TAHDIDLARDAN BIRI DEB BILADI

Ruslanbek Quroltayevich DAVLETOV*



* O'zbekiston Respublikasi
Adliya vaziri

Yuborilgan: 2021 yil 31 oktyabr
Qabul qilingan: 2021 yil 30 noyabr
Nashr etilgan sana: 2021 yil 9-dekabr

Copyright © 2021 R. Davletov, litsenziat O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi. Bu asar [Creative Commons «Attribution» \(«Atributatsiya»\) 4.0](#) shartlari asosida tarqatilgan.

IQTIBOS KELITIRISH TARTIBI:

Davletov R. 2021. O'zbekiston korrupsiyani taraqqiyotga jiddiy tahdidlardan biri deb biladi. Uzbekistan Anti-Corruption Digest. 1, 1 (Dec. 2021), 11–13.

DOI: <https://doi.org/10.47689/uacd-2181-3345-vol1-iss1-pp12-15>



O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida korrupsiya muammosini hal etishga qaratilgan qat'iy islohotlarni amalga oshirib, mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab berdi.

So'nggi to'rt yil ichida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tomonidan turli korrupsiya jinoyatlarini sodir etgan 9 mingdan ziyod kishi qo'lga olindi. Faol tekshiruvlar natijasida davlat va fuqarolarga 2,9 trillion so'm (272 million AQSh dollari) qaytarildi, bu esa korrupsion jinoyatlarning 90 foizini tashkil etdi.

Bu holat Prezident Mirziyoyevning 2017-yil yanvar oyidagi inauguratsiyasidan so'ng "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunni imzolashi qanchalik asosli ekanligidan dalolat beradi. Shuningdek, ushbu qonun Harakatlar strategiyasiga to'liq mos kelar edi.

Shundan so'ng O'zbekistonda 2017–2018- va 2019–2020-yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ikki davriy Davlat dasturi amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi tomonidan bu boradagi o'zgarishlar va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yuqorida qayd etilgan qonunni qabul qilish bilan cheklanib qolmadi. Keyingi islohot korrupsiyaga qarshi kurashning institutsional bazasini takomillashtirishga qaratildi. Shu munosabat bilan 2020-yilda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Milliy kengashi va O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi.

Hukumat sohaviy yondashuvni amalga oshirish orqali korrupsiya omillarini bartaraf etishga harakat qilmoqda. Masalan, o'tgan yili litsenziyalash tizimini o'zgartirish va biznes yuritish uchun ruxsatnomalar berish borasida yangi huquqiy islohotlar amalga oshirildi.

Mazkur chora-tadbirlar natijasida 2021-yil yanvar oyidan boshlab:

266 ta litsenziyalanadigan faoliyat turidan 70 tasi (26 %);

140 turdagi ruxsatnomalarning 35 tasi (25%) bekor qilindi.

Bundan tashqari, litsenziyalanadigan faoliyatning barcha tartib-qoidalari yagona elektron litsenziyalash tizimi asosida raqamlashtirildi.

O'zbekistonda normativ-huquqiy hujjatlarni qo'llashda korrupsiya xavflarini tahlil qilish, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarida korrupsiyaga olib keladigan normalarni aniqlash, ularni bartaraf etish va amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy bazasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish amaliyoti boshlandi. Ushbu qaror natijasida 226 ta normativ-huquqiy hujjatlar huquqiy ekspertizadan o'tkazildi va ularda 292 ta korrupsiyaviy omillar aniqlandi.

Yaqinda hukumat korrupsiyaga qarshi kurashish va davlat organlarining ochiqligini ta'minlash bo'yicha muhim chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan kompleks islohotlarning yangi paketini ishga tushirdi.

Hukumatning shaffofligi prezumpsiyasi

2021-yil iyun oyida o'tkazilgan birinchi islohot davlat organlarining ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga bag'ishlandi.

O'zbekistonda hukumatning shaffofligi tamoyili joriy etildi, bu davlat organlari faoliyati to'g'risidagi har qanday axborotning ochiqligini anglatadi.

Ushbu islohotlar doirasida hukumat barcha davlat organlari va tashkilotlari tomonidan ochiq ma'lumotlar ko'rinishida muntazam ravishda e'lon qilib boriladigan 33 yo'nalish bo'yicha 200 turdagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ijtimoiy ahamiyatga ega ma'lumotlar ro'yxatini tasdiqladi. Ayni paytda ushbu portalda 12 556 ma'lumotlar to'plami joylashtirilgan.

Davlat organlari va tashkilotlari har yili rasmiy veb-saytlarda o'z faoliyati to'g'risidagi batafsil hisobotlarni belgilangan tartibda e'lon qilib, ularning fuqarolik jamiyati ishtirokida muhokama qilish joyi va vaqti to'g'risida hisobot beradilar.

Shuningdek, davlat organlari va tashkilotlari 2021-yil 1-iyuldan boshlab, har qanday davlat xaridlari, mansabdor shaxslarning xizmat safarlariga sarflanadigan xarajatlar hamda xorijdan kelgan mehmonlarni, yuridik shaxslarning benefitsiarlarini qabul qilish uchun soliq va bojxona imtiyozlari va preferensiyalari, shuningdek, yillik xarajatlar smetasi va ularni amalga oshirish to'g'risidagi ma'lumotlarni joylashtira boshladilar.

Ayni paytda davlat xaridlari maxsus axborot portalida 21 110 ta budget xaridlari va 13 585 ta korporativ xaridlar e'lon qilingan. Ushbu portalning ishga tushirilishi bizga davlat xaridlarini amalga oshirish ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va shu orqali mansabdor shaxslarning noqonuniy harakatlarining oldini olishga imkon beradi.

Yana bir muhim islohotlardan biri – ushbu hujjat bilan davlat hokimiyati organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik indeksi bo'lib, bu ularning faoliyatiga baho berish maqsadida har yili e'lon qilib boriladi.

Nihoyat, eng muhimi, parlamentning ikkala palatasi majlislar hamda tomonlarning roziligi bilan sud majlislari televideniya jonli efirga uzatilish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Biz davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining o'rnatilishi korrupsiyaga qarshi kurashning eng samarali vositalaridan biri ekanligiga ishonamiz.

Yangi korrupsiyaga qarshi kurashish doktrinasini

2021-yilning shu oyi boshida o'tkazilgan ikkinchi yirik islohot korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorligini oshirish va korrupsion holatlarning barvaqt oldini olish, bu jarayonga jamoatchilikni keng jalb etishga qaratildi.

Davlat boshqaruvini korrupsiyadan holi sohaga aylantirish orqali hukumat jamoatchilik fikri asosida korrupsiya jinoyatlarini sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarning ochiq elektron reyestrini yuritish amaliyotini joriy etdi.

Ushbu ro'yxatga kiritilgan shaxslarga quyidagilar taqiqlanadi:

– davlat xizmatiga qabul qilinish;

– ular tomonidan tashkil etilgan xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning va (yoki) ularning davlat xaridlarida, davlat-xususiy sheriklik shartnomasida ishtirokchi (ijrochi) sifatida ishtirok etishi, shuningdek, davlat mulkini xususiylashtirish bilan bog'liq tender va tanlovlarda ishtirok etishi;

– davlat ulushi 50 foizdan ortiq bo'lgan va davlat ta'lim muassasalarida rahbarlik lavozimlarida faoliyat olib borish.

Shuningdek, hukumat tomonidan davlat xizmatchilari, davlat ulushi 50 foizdan ortiq bo'lgan tashkilotlar, davlat korxonalari va muassasalari rahbarlarining daromadlari va mol-mulkini majburiy deklaratsiyalash tizimi joriy etilmoqda.

O'zbekistonda BMTning Korruptsiyaga qarshi konvensiyasining 20-moddasiga asosan, daromad va mulkni deklaratsiyalash jarayonida aniqlangan noqonuniy boyib ketish uchun jinoiy javobgarlik joriy etildi.

Shuningdek, korruptsiyaga oid jinoyatlar uchun uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilishgacha bo'lgan jazoni, shuningdek, korruptsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoiy jazoni o'tashda yengillashtiruvchi normalarni qo'llash bo'yicha cheklovlarni kuchaytirishni rejalashtirganmiz.

Bundan tashqari, Prezident qarori bilan 2021-2022-yillarga mo'ljallangan "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Davlat dasturi qabul qilingan bo'lib, u 44 ta yangi chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi va "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunni amalga oshirish bo'yicha uchinchi davriy dastur hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekiston davlat va jamiyat boshqaruvida korruptsiya omillarini keskin kamaytirish maqsadida jamiyatimizni yangilash va uning demokratik asoslarini mustahkamlash, shuningdek, korruptsiyaga nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirish uchun bor kuch-g'ayratini safarbar etmoqda.

Bu sohani isloh qilish bo'yicha hali ko'p ishlar qilinishi kerakligini tushunamiz va muammolarimizdan xabardormiz. Biz bu muammolarni qanday hal qilishni ham bilamiz. Shu munosabat bilan biz o'z oldimizga aniq maqsadlarni qo'yganmiz, qayerga borishimiz haqida aniq tasavvurga egamiz va maqsadlarimizga erishish uchun qo'limizdan kelganini qilamiz.

Qolaversa, qabul qilinayotgan qonunlar xalqimiz bugungi hayoti va kelajagiga ijobiy ta'sir ko'rsatishiga, o'z samarasini berishiga, o'z navbatida, mamlakatimizning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yangi, demokratik va progressiv davlat sifatida yaxshilashga chin dildan ishonamiz.

Yuqoridagi islohotlarning barchasi milliy barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM-16)ni amalga oshirishga, jumladan, barqaror rivojlanish uchun tinch va inklyuziv jamiyatlarni rag'batlantirish, hamma uchun odil sud orqali himoyalalanish imkoniyatini ta'minlash, barcha pog'onalarda samarali, mas'uliyatli va keng qamrovli institutlarni barpo etishga xizmat qiladi.

UZBEKISTAN ANTI-CORRUPTION DIGEST

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH

SUD MUSTAQILLIGI VA SUD TIZIMIDA KORRUPSIYANING OLDINI OLISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR

Kozim Fazilovich KOMILOV *



* O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi

Yuborilgan: 2021 yil 31 oktyabr
Qabul qilingan: 2021 yil 30 noyabr
Nashr etilgan sana: 2021 yil 9-dekabr

Copyright © 2021 K. Komilov, litsenziat O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi. Bu asar [Creative Commons «Attribution» \(«Atributatsiya»\) 4.0](#) shartlari asosida tarqatilgan.

IQTIBOS KELITIRISH TARTIBI:

Komilov K. 2021. Sud mustaqilligi va sud tizimida korruptsiyani oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar. *Uzbekistan Anti-Corruption Digest*. 1, 1 (Dec. 2021), 14–18. DOI: <https://doi.org/10.47689/uacd-2181-3345-vol1-iss1-pp16-21>



Mamlakatimizda korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning qamrovi va salmog'i alohida e'tibor va e'tirofga loyiq. Zotan, pora olish va uni berish bilan bog'liq qilmishlar har bir davlatning iqtisodiy negiziga putur yetkazishi, ijtimoiy illatlar, xususan, jinoyatchilikka va yangi jinoyatlar sodir etilishiga yo'l ochib berishi kabi ko'plab salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi bilan g'oyatda xavflidir. Albatta, yurtimizda olib borilayotgan korruptsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olishga doir sa'y-harakatlarda sudlar ham alohida jonbozlik ko'rsatishi lozimki, bunda aholi o'rtasida korruptsiyaga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish, poraxo'rlik bilan bog'liq jinoyatlarga nisbatan qonuniy, asosli va adolatli hukmlar chiqarish, korruptsiyaning nechog'lik xavfli illat ekanini keng omma e'tiboriga sodda va tushunarli tarzda yetkazishga alohida mas'uliyat bilan yondashish talab etiladi. Binobarin, har bir sudya va sud xodimi o'z vazifasini halol va vijdonan ado etishi, ta'magirlik va korruptsiyaga mutlaqo yo'l qo'ymasligi, muayyan harakatni bajarish yoki bajarmaslik evaziga pora taklif etilgan taqdirda zudlik bilan zarur choralarni amalga oshirishni o'zining kasbiy vazifasi, insoniylik burchi, deb bilishi zarur.

Shuni alohida qayd etish joizki, yurtimizda har bir sohada poraxo'rlikka qarshi kurashishning nafaqat tashkiliy, ayni chog'da huquqiy asosi ham yaratilgan. Xususan, sudyalar va sud tizimi xodimlari o'rtasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangani fikrimizning yorqin dalilidir. Zotan, Davlatimiz rahbarining 2016-yil 21-oktabrdagi "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 10-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar Oliy kengashini shakllantirish to'g'risida"gi Farmonlari hamda Prezidentimizning 2017-yil 4-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar Oliy kengashi faoliyatini moddiy-texnika va moliyaviy jihatdan ta'minlash to'g'risida"gi qarori bu borada dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

O'z navbatida, Prezidentimizning 2017-yil 18-iyuldagi "Odil sudlov saroyi kompleksini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoyishi, 2020-yil 24-iyuldagi "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni ham ushbu sohani huquqiy jihatdan tartibga solishda muhim o'rin tutmoqda.

E'tiborlisi shundaki, sud tizimi faoliyatiga doir har bir qonun hujjati mohiyat-e'tibori bilan sudyalar va sud tizimi xodimlari o'rtasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga zamin yaratmoqda. Shu o'rinda, Davlatimiz rahbarining 2020-yil 7-dekabrda "Sudyalarning chinakam mustaqilligini ta'minlash hamda sud tizimida korrupsiyaning oldini olish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonining amaliy ahamiyati to'g'risida alohida to'xtalish joiz.

Ushbu Farmonga muvofiq Sudyalar mustaqilligini ta'minlash va sud tizimida korrupsiyaning oldini olish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari alohida

belgilab qo'yilgan. Bu borada sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish bo'yicha kasbiy faoliyatini har qanday ko'rinishdagi tashqi ta'sirlardan samarali muhofaza qilishni ta'minlaydigan huquqiy mexanizmlarni yaratish, sudyalikka kadrlarni tanlash, tayyorlash, lavozimga tayinlash, shuningdek, sudyalar faoliyatini baholashda xolislik va shaffoflikni ta'minlash, ushbu jarayonlarga zamonaviy axborot texnologiyalarini izchil joriy qilish, sudyalar va sud apparati xodimlari orasida korrupsiya holatlarining oldini olish va barvaqt aniqlashga qaratilgan tizimni yo'lga qo'yish hamda sud tizimida aniqlangan har qanday korrupsiyaviy harakatni murosasiz holat, deb baholash, sudyalarning kasbiy malakasi, ma'naviyati va mas'uliyatini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali yuksak professional sudyalar korpusini shakllantirishga e'tibor qaratilgan.

Binobarin, ushbu Farmonga asosan, 2021-yil 1-fevraldan boshlab, sud tizimida korrupsiya holatlarining oldini olish, Kengash va sud tizimi faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash maqsadida ilk bor sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tanlash bo'yicha imtihon jarayonlarini internet tarmog'i (veb-sayt) orqali onlayn tarzda yoritib borish yo'lga qo'yildi.

O'z navbatida, sudyalik lavozimiga nomzodlar va sudyalarning psixologik portreti bo'yicha kasbga munosibligini baholashga ko'maklashuvchi elektron dastur ishlab chiqildi va amalga joriy etildi.

Bundan tashqari, Farmonda belgilangan muhim vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida sudya faoliyatining samaradorligini elektron reyting orqali ochiq va shaffof baholashni ta'minlaydigan aniq mezonlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar umumiyurisdiksiya sudlari tashkil etilishi munosabati bilan 2021-yil 1-yanvardan ushbu sudlarning malaka hay'atlarini tashkil etish vazifasi ham to'liq bajarildi.

Shuningdek, Farmonga asosan, sudyalar daxlsizligini ta'minlash bo'yicha sud inspeksiyasi negizida Sudyalar daxlsizligini ta'minlash va korrupsiyaning oldini olish bo'yicha sud inspeksiyasi tashkil etildi. Qolaversa, sudyalarning odil sudlovni amalga

o'shishdagi faoliyatini rag'batlantirish maqsadida «Ibratli sudya» mukofoti, odil sudlovni amalga oshirishda uzoq yillar samarali mehnat qilib, pensiyaga chiqqan sudyalarning uchun «Sud faxriysi» ko'krak nishoni ta'sis etildi va 2021 yilda ilk bor ushbu mukofotlar o'z egalariga topshirildi.

Qolaversa, Kengash huzurida amaldagi moddiy va protsessual huquq normalarini to'g'ri qo'llash bo'yicha tavsiyaviy xarakterga ega bo'lgan maslahatlar hamda sudyalarning odob-axloq qoidalarining muayyan vaziyatlarda qo'llanilishi yuzasidan so'rovlariga tushuntirishlar berish vakolatiga ega bo'lgan jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi Sudyalarning klubi tashkil etildi. Endilikda mazkur Klub samarali faoliyat yuritayotgani ham, albatta, quvonarlidir.

Ushbu Farmon bilan sud hokimiyati mustaqilligini yanada kuchaytirish, sudyalarning daxlsizligini ta'minlash hamda tizimda korrupsiyaning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi va unga muvofiq Sudyalarning Oliy kengashi asosiy ijrochi etib belgilandi.

Mazkur rejaga muvofiq sudyalarning daxlsizligini ta'minlash, odil sudlov faoliyatiga har qanday aralashuvning oldini olish yuzasidan qat'iy chora-tadbirlar belgilash, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning tizimli sabab va sharoitlarini bartaraf etish hamda 2021-yilda sud organlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish choralari tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish choralari tizimida samaradorligini oshirishga qaratilgan dastur ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Sudyalarning va sud tizimi xodimlarining kasbiy malakasi, ma'naviyati va mas'uliyatini oshirish, tizimda korrupsiyaning barcha ko'rinishlariga muvosijsiz munosabatni shakllantirish yuzasidan onlayn o'quv tashkil etilib, tizimda korrupsiyaga yo'l qo'yilishiga omil bo'luvchi har qanday holatlarni tahliliy o'rganish, bartaraf etish choralari ko'rilmogda.

Korrupsiyaviy omillarni aniqlash va bartaraf etishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar va fuqarolik jamiyati institutlari bilan keng hamkorlik yo'lga qo'yilgani, ushbu jinoyatlarga qarshi muvosijsiz kurash olib

borilayotganini ham qayd etish joiz.

Chunonchi, sudlar tomonidan korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar sodir etgan shaxslarga nisbatan qonuniy, asosli va adolatli jazolar tayinlanishiga eng dolzarb vazifa sifatida yondashilmogda. Agar o'tgan 2020-yilda 1 132 nafar shaxs poraxo'rlik jinoyati uchun sudlangan bo'lsa, bu ko'rsatkich joriy yilning 9 oyi mobaynida 1 252 nafarni tashkil etgan.

Garchand, bu ma'lumot o'tgan yilga nisbatan joriy yilda korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar soni ortganini ko'rsatayotgan bo'lsa-da, ammo masalaning boshqa jihatini ham tahlil qilish joiz. 2020-yilda joriy etilgan karantin sharoitida pora olish va pora berishning real imkoni sezilarli pasaygan. Qolaversa, Davlatimiz rahbarining korrupsiyaga qarshi kurashishga doir oqilona siyosati o'z samarasini berishi pirovardida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning bu boradagi faollashuvi yaqqol ko'zga tashlanmogda. Aniqrog'i, avvallari korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarni o'z vaqtida aniqlashda sustkashlik kuzatilgan bo'lsa, endilikda bu jarayonda nafaqat davlat organlari, balki fuqarolik jamiyati institutlarining ham ishtirokini ko'rishimiz mumkin.

Korrupsiya bilan bog'liq vaziyatlarni barvaqt aniqlash, bu jarayonda yurtdoshlarimizning ishtirokini yanada kuchaytirish va fuqarolarga qulaylik yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Telegram-boti orqali matnli, ovozli va videomurojaatlarni yuborish imkoniyati yaratildi. Ushbu qulaylik O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, AQSh Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) va O'zbekistonda BMT Taraqqiyot dasturining "O'zbekistonda qonun ustuvorligi yo'lida hamkorlik" qo'shma loyihasi doirasida amalga oshirildi. Shuning barobarida mazkur bot orqali yuboriladigan murojaatlar turli shakldagi fayl ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Telegram-bot fuqarolar va tadbirkorlik sub'yektlariga sudlarga murojaat etishda qo'shimcha imkoniyat va qulayliklarni yaratish, sud ishlarini o'z vaqtida ko'rib chiqish, sud ishlarini ko'rish vaqtida turli sansalorliklarga yo'l qo'ymaslik, byurokratik to'siqlar va cheklavlarni bartaraf etish, shuningdek, sud

organlarida korrupsiya holatlariga qarshi kurashish maqsadida ishlab chiqilgan.

Unda har bir murojaat hisobga olinib, mas'ul xodimlar murojaatlarning statistikasi bilan tanishish, murojaatlarni nazorat qilish, javob berilmagan murojaatlarni ko'rish imkoniyatidan foydalanadi. Shuningdek, botda mas'ul xodimlarga javob berilmagan murojaat to'g'risida eslatib turish funksiyasi mavjud.

Bugungi kunda Telegram-botdan foydalanuvchilar uchun apellatsiya, kassatsiya va boshqa shikoyatlarni kuzatib borish, sud xarajatlarini hisoblash kalkulyatori funksiyasini qo'shish, e'lon qilingan sud qarorlari bilan tanishish va sud tizimi ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator qo'shimcha imkoniyat va xizmatlar yaratildi. Ushbu botni Telegram messengerining qidiruv maydoniga @suduzbot nomini kiritish orqali topish yoki <http://t.me/suduzbot> havolasi orqali unga to'g'ridan-to'g'ri o'tish mumkin.

Sud tizimida amalga oshirilayotgan o'zgarish va yangilanishlar xususida so'z borar ekan, O'zbekiston Prezidentining 2021-yil 13-yanvardagi "Sud organlari faoliyatini moliyalashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonining bu boradagi o'rni va roli beqiyos ekanini ta'kidlash muhimdir. Zero, ushbu Farmon sud organlari faoliyatini moliyalashtirish tizimini tubdan takomillashtirish va sudyalarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirishda muhim poydevor vazifasini o'tadi. Ushbu Farmonga muvofiq, 2021-yildan boshlab, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Sudyalar Oliy kengashi, Oliy sudi, Quyi sudlar sudyalari, Sudyalar oliy maktabi va ularning apparati xodimlari, Oliy sud huzuridagi Sudlar faoliyatini ta'minlash departamenti va uning hududiy bo'limlari xodimlarining ish haqlari va qo'shimcha to'lovlari to'liqligicha O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirish belgilandi. Bu albatta sudyalar va sud tizimi xodimlari o'rtasida korrupsiyaning oldini olishda eng zarur vositalardan biridir.

Bundan tashqari, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini oshirish, qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, mamlakatning xalqaro maydondagi ijobiy nufuzini oshirish maqsadida, shuningdek, 2017–2021-yillarda

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq Prezidentimizning 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan 2019-2020-yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish Davlat dasturi tasdiqlandi.

Prezidentimizning 2020-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni bilan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Kengashiga o'zgartirilib, uning tarkibiga Oliy sud raisi kiritildi.

Shu o'rinda ushbu Kengash majlisining 5-sonli bayonnomasida belgilangan vazifalar ijrosiga bag'ishlangan tadbir xususida to'xtalish joiz. Joriy yilning 25-sentabr kuni Buxoro viloyati hokimligida bo'lib o'tgan Korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy Kengashi ta'sis yig'ilishi dolzarb muammo-jamiyat taraqqiyotiga jiddiy g'ov bo'lib kelayotgan korrupsiya va uning oldini olish masalasiga bag'ishlandi. Yig'ilishda hududiy kengash a'zolari, viloyat hokimligi, deputatlar, huquqni muhofaza qilish idoralari, iqtisodiyot va agrosanoat majmui, ta'lim, sog'liqni saqlash sohalari, nodavlat-notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdilar.

Ta'sis majlisida so'z olganlar hududiy Kengash oldida turgan vazifalar, qolaversa, o'tgan yillar va shu yilning o'tgan davrida mamlakatimizda, xususan, viloyatda korrupsiya va poraxo'rlik bilan bog'liq qonunbuzarlik holatlari, jinoyat va huquqbuzarliklarning kelib chiqishiga sabab bo'layotgan shart-sharoitlar to'g'risida batafsil to'xtaldilar.

Yig'ilishda Korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy Kengashining har bir a'zosi zimmasiga yuklangan muhim vazifalar xususida so'z bordi.

Jumladan, davlat xaridlari, qurilish, yo'l ta'miri va boshqa sohalarda tashkil etilayotgan

tender hamda auksion tanlovlarning qonuniyligi, shaffof va adolatli o'tkazilishini o'rganish, yosh kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishda, davlat idoralari, korxonalar va muassasalariga ishga qabul qilishda shaffoflik va sog'lom raqobatni shakllantirish kabi jihatlarga e'tibor qaratildi. Bu jarayonda ommaviy axborot vositalari ham yetakchi kuchga aylanishi, u yoki bu sohada ro'y berishi mumkin bo'lgan ta'magirlik, poraxo'rlik holatlariga nisbatan murosasiz bo'lish va bu borada aholi orasida ijtimoiy fikrni shakllantirish zarurligi ta'kidlandi. Ta'asis majlisi yakunida qator tavsiyalar ishlab chiqilib, mas'ul shaxslar zimmasiga tegishli vazifalar yuklandi.

Mamlakatimiz rahbarining 2021-yil 6-iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan 2021-2022-yillarda Korrupsiyaga qarshi kurashish Davlat dasturi tasdiqlandi.

Ushbu Farmon bilan korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiyaviy holatlarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini oshirish, ushbu jarayonga jamoatchilikni keng jalb etish va korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lish muhitini shakllantirish maqsadida korrupsiya holatlarining har qanday ko'rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lish va unga qarshi ayovsiz kurashish barcha darajadagi davlat organlari rahbar va xodimlarining eng ustuvor vazifasi etib belgilandi.

Prezidentimizning 2021-yil 6-iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishini samarali tashkil etish maqsadida qator tartiblar o'rnatildi.

Umuman olganda, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga doir har bir qonun hujjati muayyan masalaning huquqiy yechimini topishda muhim hujjat bo'layotganini tan olish joiz.

Xulosa o'rnida shuni qayd etish muhimki, adolat qo'rg'oni bo'lgan sud tizimida korrupsiyaga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Davlat va jamiyat taraqqiyotiga raxna soluvchi illatlar, aniqrog'i, jinoyatchilikka qarshi kurashish, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi

- kurashishda barcha birdek mas'ul. Shu bois, ushbu ijtimoiy xavfli qilmishga qarshi kurashish samaradorligini oshirish borasida keng ko'lamlilik ishlar olib borilmoqda.

Jamiyat rivojiga eng katta xavf tug'diruvchi korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashishga doimo dolzarb vazifa sifatida yondashmog'imiz shart. Ayniqsa, sudyalalar va tizim xodimlari bunga murosasiz munosabatda bo'lishi zarur. Sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsadlardan biri-sohada korrupsiyaga barham berish tizimini tubdan takomillashtirishdir. Sudyalalar mustaqilligini ta'minlash, uning nufuzini oshirish borasidagi ishlar bu illatga qarshi kurashishda har birimizga katta mas'uliyat yuklaydi. Bir so'z bilan aytganda, kasbiga sadoqatli, vatanparvar sudya hech qachon korrupsiyadek jirkanch ishga qo'l urmaydi.

UZBEKISTAN ANTI-CORRUPTION DIGEST

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH

DAVLAT XIZMATIGA OCHIQ YO'L

Otabek Abdurashidovich XASANOV *



* O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
Davlat xizmatini
rivojlantirish agentligi

Yuborilgan: 2021 yil 31 oktyabr
Qabul qilingan: 2021 yil 30 noyabr
Nashr etilgan sana: 2021 yil 9-dekabr

Copyright © 2021 O. Xasanov, litsenziat O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi. Bu asar [Creative Commons «Attribution» \(«Atributatsiya»\) 4.0](#) shartlari asosida tarqatilgan.

ПОРЯДОК ЦИТИРОВАНИЯ:

Xasanov, O. 2021. Davlat xizmatiga ochiq yo'l. Uzbekistan Anti-Corruption Digest. 1, 1 (Dec. 2021), 19–22.

DOI: <https://doi.org/10.47689/uacd-2181-3345-vol1-iss1-pp22-25>



Davlat xizmati faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar doirasida mamlakatimizda davlat boshqaruvini konseptual yangilash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Islohotlar sur'ati hamda hudud va sohalarni rivojlantirish bo'yicha belgilanayotgan marralar davlat xizmatining har bir yo'nalishida ishlarni tashkil etishni tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Xususan, endilikda eskicha boshqaruv usullari bilan Yangi O'zbekistonni qurib bo'lmaydi. Boshqacha aytganda, bugungi qo'yilayotgan talabning o'zi har bir sohada zamonaviy yondashuvni joriy etishni talab etmoqda.

Bu yo'nalishdagi fikr-mulohazalar yangidan saylangan O'zbekiston Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2021-yil 6-noyabrda bo'lib o'tgan lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqida asosiy o'rinni egalladi. Nutqda "Yangi O'zbekiston taraqqiyoti strategiyasi" doirasida "inson – jamiyat – davlat" degan yangi tamoyil asosida faoliyat olib borilishi ta'kidlandi. Bunda taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida oldimizda turgan 7 ustuvor vazifa ko'rsatib berildi. Garchi yo'nalishlar turli xil bo'lsa-da, bosh g'oya o'zgarishsiz qoldi: "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak", degan da'vat "Rahbarlar faqat davlatga emas, avvalo, inson va oilaga, ularning qonuniy manfaatlarini ta'minlashga xizmat qilishi kerak", deya davom ettirildi.

Qachon davlat xalqqa samarali xizmat ko'rsatadi? Qachonki, davlat xizmati lavozimlarini salohiyatli, raqobatbardosh kadrlar egallasa... Bu, o'z navbatida, tizimni fidoyi, sadoqatli, professional kadrlar hisobiga to'ldirishni talab etadi.

Bu borada davlatimiz rahbari o'z nutqida quyidagi yo'nalishni ham belgilab berdi: "Ayni vaqtda kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish jarayoniga yangicha, zamonaviy yondashuvlar joriy etiladi. Kadrlar davlat xizmatiga tanlov asosida qabul qilinadi, ular uchun uzluksiz malaka oshirish, natijadorlikni baholash va lavozim bo'yicha ko'tarilish mezonlari belgilanadi". Ya'ni endilikda davlat xizmatiga kadrlar faqatgina ochiq tanlov asosida qabul qilinadi.

Oldimizda turgan bunday mas'uliyatli vazifalarni sifatli bajarish maqsadida davlat organlari va tashkilotlarini malakali mutaxassislar bilan yetarli darajada ta'minlashga, kadrlar malakasining yuklatilgan vazifalar va zamonaviy ehtiyojlarga muvofiqligiga, qabul qilinayotgan qarorlar sifatining oshishiga olib kelayotgan bir qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, davlat fuqarolik xizmatini, shu jumladan, nomzodlarni ochiq mustaqil tanlov orqali saralab olish jarayonini kompleks huquqiy tartibga solishni ta'minlovchi, shuningdek, davlat fuqarolik xizmatchilarining ish samaradorligi va kompetensiyasini baholovchi mezonlar, ularning malakasini oshirishga bo'lgan talablar yuzasidan samarali mexanizmlar sohaga tatbiq etilmoqda.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad inson manfaatlarining ustuvorligini ta'minlashga qaratilganligi bilan ahamiyatli.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bu borada asosiy huquqiy poydevordir. Bosh Qomusimizning 37-moddasida: "Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalani huquqiga ega", deb qayd etilganligi Bosh Qomusimizning "xalqchil qonun" bo'lganidan

dalolatdir. Ushbu normaning amaliyotda to'liq o'z aksini topishi uchun qator yangi mexanizmlar joriy qilinmoqda.

O'zbekistonda birgina davlat fuqarolik xizmati bilan shug'ullanadigan vakolatli organ mavjud bo'lmaganligi tufayli davlat sektorida yagona kadrlar siyosati olib borilmay, xodimlarni samarali boshqarish va inson resurslarini rivojlantirish, shuningdek, sog'lom raqobat asosida malakali kadrlar zaxirasini shakllantirishga imkon bo'lmagan.

Aynan barcha sohalarda o'sish va yangilanishlar bo'layotgan bir pallada rahbar kadrlarga bo'lgan ehtiyoj yil sayin ortayotgani sohaga yanada jiddiyroq yondashuvni talab etmoqda. Ushbu muammolarning bir qismiga yechim sifatida oxirgi yillarda yosh kadrlarni saralab olish va ularni yuqori lavozimlarga tayinlash bo'yicha muhim qadamlar tashlangani alohida e'tiborga molikdir.

Ammo bu mavjud dolzarb masalaning to'liq yechimi bo'lmaganligi bois, O'zbekiston Respublikasida davlat xizmatini tartibga solish hamda tubdan takomillashtirish maqsadida xalqaro tajribalar o'rganib chiqilib, 2019-yil 3-oktabrda qabul qilingan Davlatimiz rahbarining "O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni va "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tashkil etildi.

Farmonga ko'ra, 2020-yil 1-yanvardan boshlab, tajriba tariqasida ayrim davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va hududlarda, 2021-yil 1-yanvardan boshlab esa respublikaning barcha davlat organlari, tashkilotlarida davlat xizmatiga qabul ochiq mustaqil tanlov asosida amalga oshirilishi, davlat fuqarolik xizmatiga ishga qabul qilish va kadrlarning xizmat bo'yicha o'sib borishi bilan bog'liq faoliyatda nomzodlarni adolatli baholash, ular orasidan eng munosiblarini tanlashga qaratilgan meritokratiya tamoyili qo'llanilishi belgilab qo'yildi.

Rivojlangan davlatlar tomonidan namuna sifatida olingan davlat fuqarolik xizmati sohasida boshqaruvning zamonaviy tizimini joriy etishdagi asosiy vazifalardan biri ochiq mustaqil tanlov asosida kadrlarni tanlab olish ekanini ko'rish mumkin.

Bunda eng iqtidorli, kompetensiyalari yuqori bo'lgan xodimlar meritokratiya tamoyili asosida bo'sh ish o'rinlariga ishga qabul qilinadi.

Davlat fuqarolik xizmatiga kirishda inson omilini kamaytirish hamda barcha fuqarolarga teng imkoniyatlar yaratish maqsadida Agentlik tomonidan Buyuk Britaniya, AQSh, Janubiy Koreya, Birlashgan Arab Amirliklari va boshqa rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribasini o'rgangan holda Davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona ochiq portali – vacancy.argos.uz ishlab chiqildi.

Ushbu platformaning yaratilishi meritokratiyaga keng yo'l ochib berdi. Tom ma'noda, "munosiblar hokimiyati" deya tarjima qilinadigan meritokratiya tamoyili rivojlangan mamlakatlarda allaqachon urf bo'lgan. Boshqaruvning bu tamoyiliga ko'ra, moliyaviy ahvoli va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, eng qobiliyatli, tirishqoq va layoqatli nomzodlar davlat fuqarolik xizmatchilari lavozimlarini egallaydi. Nega deganda, mansab pillapoyalaridan ko'tarilishda erishilgan natijalar, qobiliyat va aql-zakovat hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Eng asosiysi, joriy etilayotgan yangi tizimda inson aralashuvini cheklashga qaratilgan tadbirlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ya'ni hujjat topshirish jarayonlari portal orqali, test jarayonlari esa test.argos.uz platformasida amalga oshirilishi hamda suhbat jarayonlari onlayn translatsiya qilinishini ko'zda tutuvchi raqamlashtirish texnologiyalari tanlov jarayonlarining barcha bosqichlariga joriy etilgan.

Bunday yondashuv davlat xizmatiga eng munosib, malakali kadrlarni byurokratik to'siqlarsiz ochiq va adolatli tanlov jarayonlari orqali jalb etish imkonini beradi.

Ushbu portal davlat organlari va tashkilotlaridagi vakant lavozimlarni egallash

uchun ochiq mustaqil tanlovlarni tashkil etish bo'yicha yagona elektron tizim bo'lib, internet tarmog'ida "bir darcha" tamoyili asosida faoliyat ko'rsatadi.

Portaldagi davlat organlarining vakant lavozimlari to'g'risidagi ma'lumotlar avtomatik tarzda "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksidan foydalangan holda saytga joylashtiriladi va nomzodlarning hujjatlarini qabul qilish faqat elektron tarzda amalga oshiriladi.

Bu amaliyot qog'ozbozlik va ortiqcha yozishmalardan xoli bo'lgan elektron platforma sifatida faoliyat yuritadi. Ishga kirmoqchi bo'lgan kadrlar tashkilot-tashkilot hujjatlarni ko'tarib yurib, ovora va sarson bo'lmaydi. Turli idoralardan ortiqcha ma'lumotnomalarni olish ham talab etilmaydi. Bunda har bir nomzod ochiq maydonda o'z bilimini sinab ko'rib, test, psixologik sinov va suhbat bosqichlaridan o'tadi.

Vakant lavozimlar uchun ochiq mustaqil tanlovlar bir nechta bosqichdan iborat. Bular:

- har bir nomzodning vakant lavozim malaka talablariga mosligini o'rganish;
- test orqali uning bilim darajasini sinovdan o'tkazish;
- assesment shaklidagi suhbat jarayoni.

Mazkur tizimning ahamiyatli tomoni shundaki, tanlov bosqichlari bo'yicha ma'lumotlar onlayn tarzda har bir nomzodning portaldagi shaxsiy kabinetiga yuboriladi, ya'ni har bir bosqich natijasi bo'yicha nomzodlarga asoslangan javob beriladi.

Joriy yilning 6-noyabr holatida Portalda respublikaning 60 ta vazirlik va idoralari hamda barcha hokimliklardagi mavjud 16 961 ta vakant lavozimlar bo'yicha tanlovlar e'lon qilinib, ushbu vakant lavozimlarga jami 258 241 nafar nomzodlar (o'rtacha 1 ta lavozimga 15-18 nafar nomzod) tomonidan tanlovda ishtirok etish uchun hujjat topshirilgan.

O'tkazilgan tanlovlarni vazirlik va idoralar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p tanlovlar Davlat soliq qo'mitasi tizimida (2 786 ta), Xalq ta'limi vazirligi tizimida (2 342 ta) va

Moliya vazirligi tizimida (2 083 ta), umumiy hisobda vazirlik va idoralar tizimida (15 998 ta), hokimliklar tizimida (963 ta) tashkil etdi.

Hududlar kesimida tahlil shuni ko'rsatadiki, Samarqand (1 516 ta), Navoiy (1 460 ta), Toshkent (1 410 ta) va Andijon (1 410 ta) viloyatlarida eng ko'p ochiq tanlovlar o'tkazilgan.

Tanlov yakunida 12 796 ta vakant lavozimlarning 4 416 tasi (35%) malakali xodimlar bilan jamlandi, 8 380 ta (65%) vakant lavozimlarga esa qayta tanlov e'lon qilindi.

O'rta hisobda bir kun davomida 140 ta vakant lavozim bo'yicha tanlovlar e'lon qilinib, 1 350 nafar nomzodlardan hujjat kelib tushmoqda, shundan 30-35 nafar malakali xodimlar tanlovlar orqali davlat fuqarolik xizmatidagi vakant lavozimlarni egallashmoqda.

Shuni ta'kidlash lozimki, davlat xizmatiga qabul qilingan 4 416 nafar tanlov g'oliblarining 446 nafari (10 %) – ayol xodimlar, 1 425 nafari (32 %) – 30 yoshgacha bo'lgan, shuningdek, 677 nafari (15 %) – davlat xizmatiga birinchi marotaba qabul qilinganlarni tashkil etadi. Albatta, O'zbekistonda davlat fuqarolik xizmatiga ochiq tanlov asosida ishga qabul qilish jarayonlari bosqichma-bosqich rivojlanmoqda va bu boradagi islohotlar davom ettirilyapti. Kelgusida mazkur tizim barcha davlat tashkilotlarida joriy qilinishi rejalashtirilmoqda.

Ushbu platforma, o'z navbatida, mamlakatda davlat fuqarolik xizmatchilari sifat tarkibini yaxshilash, davlat organlari va tashkilotlarining malakali mutaxassisga bo'lgan ehtiyojini o'z vaqtida qondirish, barcha fuqarolarga tenglik yaratish imkonini bermoqda.

OAV MINBARI

**AXBOROT OLISH VA SO'Z ERKINLIGINI TA'MINLASH
MAMLAKAT TARAQQIYOTINING ENG MUHIM SHARTIDIR****Asadjon Azatbekovich XODJAYEV ***

* O'zbekiston
Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va
ommaviy
kommunikatsiyalar
agentligi direktori

Yuborilgan: 2021 yil 31 oktyabr
Qabul qilingan: 2021 yil 30 noyabr
Nashr etilgan sana: 2021 yil 9-dekabr

Copyright © 2021 A. Xodjayev, litsenziat O'zbekiston
Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi.
Bu asar [Creative Commons «Attribution»
\(«Atributatsiya»\) 4.0](#) shartlari asosida tarqatilgan.

IQTIBOS KELTIRISH TARTIBI:

Xodjayev, A. 2021. Axborot olish va so'z
erkinligini ta'minlash mamlakat
taraqqiyotining eng muhim shartidir.
Uzbekistan Anti-Corruption Digest. 1, 1 (Dec.
2021), 23–25.
DOI: [https://doi.org/10.47689/uacd-2181-3345-
vol1-iss1-pp26-29](https://doi.org/10.47689/uacd-2181-3345-vol1-iss1-pp26-29)



Bugun O'zbekistonda har bir sohada ochiqlik, oshkoralik, shaffoflik mezonlari o'ziga xos taomilga aylandi. Bundan ko'zlangan maqsad-muddao ham aniq. Ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash orqali turli xil korruptsiyaviy jinoyatlarga barham berish, yana ham lo'ndaroq aytganda, buning oldini olish va ushbu holatga yo'l qo'ymaslikdir. Albatta, yillar davomida ildiz otgan bunday holatlarni bir kun, bir yil yoki qisqa bir muddatda to'liq bartaraf etish mushkul masala. Lekin mamlakatimizda bu jarayonga qat'iy kirishildi. Avvalo, uning qonuniy asoslari yaratildi, har bir sohada amaliyotga keng joriy etildi va ular bugun ishlamoqda.

Qabul qilingan qonun hujjatlari, belgilangan chora-tadbirlar qanday samaralar berdi, qanday natijalarga erishildi, umuman olganda, o'zgarish bo'ldimi yoki yo'qmi, degan savollarga qiyosiy tahlil yordamida javob topish osonroq.

Shu ma'noda, yuqoridagi natijalarni keyingi yillarda so'z erkinligi, jamoatchilik nazoratining asosiy manbasi bo'lgan ommaviy axborot vositalari hamda davlat organlari faoliyatining ochiqligi va oshkoraligini ta'minlash, shuningdek, jurnalist kasbining nufuzi va mavqeiini mustahkamlash borasida amalga oshirilgan islohotlar misolida tahlil qilib, xulosalar chiqarsak, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Avvalo, so'z va matbuot erkinligi, ochiqlik siyosatiga davlat rahbari Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi tufayli asos yaratildi. 2016-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylangan Shavkat Mirziyoyev mamlakat taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarishning muhim sharti sifatida axborot sohasini tubdan isloh qilish va rivojlantirish masalasini eng ustuvor vazifa sifatida belgilab berdi.

Respublikamizda keyingi besh yilda fuqarolarning axborot olishi, so'z erkinligi va ommaviy axborot vositalarining samarali faoliyatini ta'minlashning huquqiy asoslarini mustahkamlash, shuningdek, davlat va jamiyat o'rtasida ochiq va shaffof muloqotni yo'lga qo'yish uchun 20 dan ortiq qonun va me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Bu davrda professional kadrlarni yetkazib beruvchi mustaqil Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, shuningdek, axborot sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi vakolatli organ sifatida Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining tashkil etilishi, davlat va xo'jalik boshqaruvi hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati shaffofligini oshirish maqsadida axborot xizmatlari faoliyatining yo'lga qo'yilishi sohani har tomonlama rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

O'tgan vaqt mobaynida shunga mos tarzda axborot manbalari soni ham keskin ko'paydi. Masalan, ko'p emas, bundan 6-7 yil ilgari ommaviy axborot vositalari va jurnalistlar uchun vazirlik va idoralardan axborot olish katta bir muammo bo'lgan bo'lsa, bugun axborot xizmatlari ma'lumot olishning asosiy manbalaridan biriga aylandi. Boshqacha aytganda, davlat organlari va tashkilotlarining axborot tarqatish manbasi 2019-yilda 559 tani tashkil etgan bo'lsa, 2021-yil sentabr oyi holatiga ko'ra 3 000 taga yaqinlashdi.

2020-yildan boshlab, har chorakda Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi vazirliklar, idoralar hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikda media-rejalarni ishlab chiqish tizimini yo'lga qo'ydi.

Bu o'z samaralarini bermoqda. Ushbu media-rejalar asosida Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O'zbekiston milliy matbuot markazi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda muntazam ravishda davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari, matbuot kotiblari ishtirokida brifing, matbuot anjumanlari va joylarda media-turlar o'tkazish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Birgina 2021-yilning 9 oyi davomida 937 ta ana shunday turdagi matbuot tadbirlari o'tkazildi.

Bu nima berdi? Birinchidan, vazirliklar, idoralar hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining ochiqligi ta'minlandi. Ikkinchidan, ommaviy axborot vositalari va jurnalistlarning ishtiroki tufayli ularning jamoatchilik bilan aloqalari yo'lga qo'yildi. Uchinchidan, markazda va joylarda aholini qiynayotgan, yillar davomida yig'ilib qolgan muammolarga munosabat bildirish va yechimini topish mexanizmi yaratildi. To'rtinchidan, eng muhimi, vazirliklar, idoralar hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining odamlar bilan yaqinlashuviga erishildi.

Bu, o'z navbatida, ochiqlik, oshkoralik, shaffoflikka, shu bilan birga, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar yordamida jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish va korrupsiyaga qarshi kurashish muhitini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqqan holda, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 1213 qisqa raqamli Call-markaz faoliyati yo'lga qo'yildi. U orqali jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning vakillariga OAVning muayyan turi, xususiy nashriyot, bosmaxona xizmatlari faoliyatini litsenziyalash; kontrafakt kanselyariya mahsulotlari yoki kitob va bosma nashrlar; tizimdagi tashkilotlar faoliyati; OAV, axborot xizmatlari, elektron va bosma matbuot, teleradiokompaniyalar faoliyati; axborot olish erkinligi, jurnalist va blogerlar faoliyati bilan bog'liq hamda sohaga tegishli barcha masalalar bo'yicha murojaat qilish imkoniyati yaratildi.

Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalari, jurnalist va blogerlar faoliyatiga to'sqinlik qilish faktlarini tezkor aniqlash hamda tegishli idora va tashkilotlar ishtirokida muhokama qilish, muammolarga joyida yechim topish uchun Agentlikning hududiy boshqarmalari huzurida "Dialog maydonchasi" tashkil etildi. 2021-yilning o'tgan davri mobaynida Call-markaz va "Dialog maydonchasi" orqali ommaviy axborot vositalarining kasbiy faoliyati bilan bog'liq 70 ga yaqin murojaat o'rganilib, ijobiy hal etildi.

Mamlakatda ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar natijasida O'zbekistonda axborot makoni jadal kengayib bormoqda. Jumladan, oxirgi 5 yilda ro'yxatga olingan ommaviy axborot vositalari soni 29 foiz (448 ta)ga oshib, 1962 tani tashkil etdi. Ularning 677 tasi aholining keng qatlami foydalanayotgan internet ommaviy axborot vositalaridir. Ijtimoiy tarmoqlarda bloger sifatida faoliyat olib borayotgan 1,3 ming nafardan ortiq fuqaro ham bugun axborot makonining faol ishtirokchisiga aylandi.

Albatta, axborot makonining rivojlanishi ko'p jihatdan ommaviy axborot vositalari xodimlari, jurnalist va blogerlar, axborot xizmatlari xodimlarining amaldagi qonun hujjatlariga rioya qilgan holda faoliyat yuritishlariga bog'liq. Shuni e'tiborga olib, Agentlik ularning malakasini oshirish, huquqiy bilimlarini yuksaltirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratmoqda.

Xususan, 2021 yilning yanvar-fevral oylarida Sudyalar oliy kengashi bilan hamkorlikda huquqiy mavzuga ixtisoslashgan OAV vakillari va blogerlar uchun oflayn va onlayn shaklda ikki haftalik o'quv mashg'ulotlarini o'tkazildi. Mart-aprel oylarida esa Yuristlar malakasini oshirish markazi bilan hamkorlikda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida "Axborot olish, qayta ishlash va tarqatishda jurnalistlarning huquq va majburiyatlari" mavzusida malaka oshirish o'quv-kurslari tashkil etildi. Mazkur kurslarda 600 nafarga yaqin jurnalist, bloger va matbuot kotibi o'z malakasini oshirdi.

Bundan tashqari, 2021-yil mart oyida Davlat boshqaruvi akademiyasi bilan hamkorlikda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hamda tumanlar va shaharlar hokimliklari axborot xizmatlarining 220 nafar xodimlari ishtirokida alohida o'quv-seminari o'tkazildi. Bunday misollarni yana ko'plab keltirish mumkin.

Kelgusida ham bu boradagi ishlarni yanada izchil va kengroq ko'lamda davom ettirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlarni belgilab olganmiz. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad – axborot makonida faoliyat yuritayotgan ijodiy xodimlar, jurnalist va blogerlarning ham professional, ham huquqiy savodxonligini oshirishga erishish. Ma'lumki, qonun va sohadagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni mukammal bilgan, bir so'z bilan aytganda, huquqiy savodxon jurnalist va bloger xatoga, qonun buzilishiga yo'l qo'ymaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobida ta'kidlab o'tilgan bir jihatga e'tiboringizni qaratmoqchi edim: **axborot va matbuot erkinligi, fuqarolarning o'z xohish-irodasini erkin bildirishi, davlat idoralari faoliyatining ochiqligi va oshkoraligi Yangi O'zbekistonning sifat ko'rsatkichlaridan biriga aylandi. Bu yo'lni davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri deb bilamiz va qat'iy davom ettiramiz.**

O'ylaymanki, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish, jurnalist va blogerlarning kasbiy malakasini oshirish, davlat va jamiyat o'rtasidagi muloqotni mustahkamlash, jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish borasidagi ishlarimizni yanada kuchaytirishimiz kerak.

FUQAROLIK JAMIYAT INSTITUTLARI

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING ISHTIROKI

Axtam Salomovich TURSUNOV *



* Yuridik fanlar doktori, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi, Huquqbuzarliklar profilaktikasi kafedrası professori.

Yuborilgan: 2021 yil 31 oktyabr
Qabul qilingan: 2021 yil 30 noyabr
Nashr etilgan sana: 2021 yil 9-dekabr

Copyright © 2021 T. Tursunov, litsenziat O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi. Bu asar [Creative Commons «Attribution» \(«Atributatsiya»\) 4.0](#) shartlari asosida tarqatilgan.

IQTIBOS KELTIRISH TARTIBI:

Tursunov, A. 2021. Korruptsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki. Uzbekistan Anti-Corruption Digest. 1, 1 (Dec. 2021), 26–28. DOI: <https://doi.org/10.47689/uacd-2181-3345-vol1-iss1-pp30-32>



Korruptsiyaga qarshi kurashish keng qamrovli, unda nafaqat davlat organlari, ayni paytda fuqarolik jamiyati institutlari ham ishtirok etishi lozim.

Korruptsiyaga qarshi kurashish borasida yuqori natijalarga erishgan davlatlarning tajribalariga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu davlatlarda fuqarolik jamiyati institutlari korruptsiyaga qarshi kurashishda asosiy ishtirokchilardan biri ekanligini kuzatish mumkin. Umuman olganda, korruptsiyaga qarshi kurashish samaradorligini fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Shu o'rinda bir savol tug'iladi: fuqarolik jamiyati institutlari ixtiyorida davlat organlaridagi singari maxsus vakolatlar hamda ma'muriy resurslar bo'lmasa-da, qanday qilib korruptsiyaga qarshi kurashishda muhim vazifalarni bajarishi mumkin?

Korruptsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyati institutlarining roli birinchi galda korruptsiyaviy xavflarni aniqlashda namoyon bo'ladi. Gap shundaki, korruptsiyaviy xavflar huquqbuzarlik hisoblanmaydi va unga nisbatan davlat tomonidan javobgarlik belgilanmagan. Ammo jamiyat tomonidan, shu jumladan, fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan har doim korruptsiyaviy xavflar salbiy qabul qilinadi va, o'z navbatida, bunga munosabat bildiriladi.

Tahlillar korrupsiyani fosh etishda ham keng jamoatchilik muhim o'rin tutishini ko'rsatmoqda. Bu o'rinda korrupsiyani fosh etish uchun maxsus vakolatlarga ega bo'lgan davlat organlari ham mavjudligi, ammo bu organlarning e'tiboriga tushmagan korrupsiyaviy holatlarni jamoatchilik fosh etganligi to'g'risida ko'plab misollar keltirish mumkin. Buning sababi shundaki, jamoatchilikni aldab va chalg'itib bo'lmaydi. Qanchalik yashirin bo'lmasin, korrupsiyadan baribir jamoatchilik xabar topadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning muhim instrumentlaridan biri oshkoralik va hisobdorlikdir. Chunki korrupsiya nafaqat g'ayrihuquqiy qilmish, ayni paytda salbiy holat sifatida jamiyat tomonidan qattiq qoralanganligi sababli har doim yashirin tarzda yuz beradi. Shuning uchun korrupsiyaning "eng katta dushmani" oshkoralikdir. Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatida ochiqlik, oshkoralik va shaffoflikni ta'minlash hamda mansabdor shaxslarning aholi oldidagi hisobdorligini yo'lga qo'yish orqali davlat boshqaruvida samarali va ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun zarur sharoitlar yaratiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi (2014-yil 5-may), "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi (2018-yil 12-aprel) Qonunlarida davlat organlari faoliyatining ochiqligi hamda ular ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish mexanizmlari bayon etilgan.

Korrupsiya holatlarining har qanday ko'rinishlariga nisbatan muhosabatni shakllantirishda ham fuqarolik jamiyati institutlari muhim o'rin tutadi. Agarda jamiyat tomonidan korrupsiya oddiy ijtimoiy norma sifatida qabul qilinadigan bo'lsa, unda korrupsiyaga qarshi kurashish hech qanday samara bermaydi. Korrupsiyaning har qanday ko'rinishlariga nisbatan jamoatchilik tomonidan keskin muhosabat bildirilishi bu illatga qarshi kurashishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bir so'z bilan aytganda, fuqarolik jamiyat institutlari jamiyatning korrupsiyaga qarshi imkoniyat va salohiyatini shakllantirish, rivojlantirish hamda amalga oshirishning kompleks mexanizmini ifodalaydi.

Keng jamoatchilikning korrupsiyaga nisbatan muhosabatlari jamoatchilik bosimini keltirib chiqaradi. Jamoatchilik bosimi garchand huquqiy richag hisoblanmasa-da, ammo davlat organlari va mansabdor shaxslariga samarali ta'sir o'tkazish orqali korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida fuqarolik tashabbuslarini ro'yobga chiqarish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-iyuldagi "Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3837-sonli qarori bilan davlat organi huzuridagi o'z ishini jamoatchilik asosida olib boradigan, doimiy faoliyat yurituvchi maslahat-kengash organi – jamoatchilik kengashlari faoliyatining huquqiy asoslari belgilab qo'yildi. Shu bilan birga, jamoatchilik kengashlari faoliyati samaradorligini ta'minlash maqsadida Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari faoliyati samaradorligini reyting baholash metodikasi ishlab chiqildi va joriy etildi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasining (Nyu-York, 2003-yil 31-oktabr) 13-moddasida korrupsiyaga qarshi kurashishda jamoat ishtirokining huquqiy asoslari belgilangan. Unga ko'ra, *har bir ishtirokchi davlat korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish hamda jamiyat korrupsiya mavjudligi, uning sabablari, xavfli xususiyatlari va yuzaga keltiruvchi tahdidlarini yanada chuqurroq anglashi uchun fuqarolik jamiyat, nohukumat tashkilotlar va jamoatlar negizida faoliyat yurituvchi tashkilotlar kabi ommaviy sektorning tashqarisida alohida shaxslar va guruhlarning faol ishtirokiga ko'maklashish uchun tegishli choralarni ko'rishi lozimligi belgilangan.*

O'tgan besh yil mobaynida O'zbekistonda ham korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan muhim islohotlar amalga oshirildi. Bunda birinchi galda korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy va institutsional asoslari yaratildi va rivojlantirildi. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish borasida xalqaro standartlar joriy etilmoqda. Bundan tashqari, korrupsiyaga qarshi kurashishda keng jamoatchilikning ishtirokini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunning (2017-yil 3-yanvar) 14-moddasida fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarining, nodavlat-notijorat tashkilotlarining va fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishining huquqiy asoslari yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6257-sonli Farmonida esa *korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiyaviy holatlarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini oshirish, ushbu jarayonga jamoatchilikni keng jalb etish va korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lish muhitini shakllantirish bilan bog'liq muhim masalalar belgilandi.* Jumladan, Farmon bilan "Korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarning ochiq elektron reyestri"ni yuritish amaliyoti joriy etilishi belgilandi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki samarali bo'lishi uchun quyidagilar talab etiladi:

birinchidan, avvalo, jamiyatning o'zi korrupsiyaga qarshi kurashishda jamoatchilikning faol ishtiroki zarurligini anglab yetishi kerak;

ikkinchidan, fuqarolik jamiyati institutlarining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi ishtiroki davlat tomonidan rag'batlantirilishi zarur;

uchinchidan, korrupsiyaga qarshi kurashishda ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish va ularning faoliyatini har doim qo'llab-quvvatlash talab etiladi. Bu borada korrupsiyaga qarshi kurashish masalalarini yorituvchi mustaqil maxsus ommaviy axborot vositalari, hech bo'lmaganda, dasturlar, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega;

to'rtinchidan, korrupsiyaga qarshi kurashuvchi maxsus nodavlat-notijorat tashkilotlari faoliyatini yo'lga qo'yish va kengaytirish, ularning mustaqilligi va daxlsizligini kafolatlash muhim ahamiyatga ega;

beshinchidan, korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligini rivojlantirish lozim.

Shunday qilib, korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyati institutlari o'rni to'ldirib bo'lmaydigan salohiyatga ega bo'lib, jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi immunitetini parvarishlaydi hamda keng jamoatchilikning imkoniyatlarini birlashtiradi.

FUQAROLIK JAMIYAT INSTITUTLARI

KORUPSIYAGA QARSHI KURSHDA
JAMOATCHILIKNINDNING ROLI

Bobur Mansurovich BEKMURODOV *



* "Yuksalish" umummilliy harakati raisi

Yuborilgan: 2021 yil 31 oktyabr
Qabul qilingan: 2021 yil 30 noyabr
Nashr etilgan sana: 2021 yil 9-dekabr

Copyright © 2021 T. Narbayeva, litsenziat O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi. Bu asar [Creative Commons «Attribution» \(«Atributatsiya»\) 4.0](#) shartlari asosida tarqatilgan.

IQTIBOS KELTIRISH TARTIBI:

Bekmurodov B. 2021. Korruptsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki. Uzbekistan Anti-Corruption Digest. 1, 1 (Dec. 2021), 29–32. DOI:<https://doi.org/10.47689/uacd-vol1-iss1-pp33-36>.



Bugun mamlakatimizda korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi.

Korruptsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashi hamda Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyati yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston uchun tamoman yangi bo'lgan "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi va "Davlat xaridlari to'g'risida"gi muhim Qonunlar qabul qilindi.

Har bir vazirlik va idorada, xo'jalik boshqaruvi organlarida korruptsiyaga qarshi kurashishda "komplayens nazorat" (Compliance control) tizimi joriy etilmoqda.

Budjet ochiqligini ta'minlashga xizmat qiluvchi: openbudget.uz; d.xarid.uz; e-xarid.uz; cooperation.uz; kabi maxsus portallar ishga tushirildi.

Davlat xizmatiga ochiq tanlov asosida ishga qabul qilish tizimi yaratildi.

2020-yilning dekabr oyida "Open Data Watch" xalqaro notijorat tashkiloti tomonidan e'lon qilingan ochiq ma'lumotlar reytingida O'zbekiston 63 ball bilan jahon bo'yicha 187 mamlakat orasidan 44-o'rinni, Markaziy Osiyoda esa 1-o'rinni egalladi.

Bir so'z bilan aytganda, korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashda jiddiy qadamlar tashlandi. Ammo hali qilinadigan ishlar ham yetarlicha ko'p. Chunki korruptsiya holatlari barcha darajada hali ham mavjud. Xo'sh, korruptsiyaga qarshi kurash faqat davlat idoralarining ishimi yoki oddiy fuqarolarning ham vazifasimi? Boshqa sohalardagi muammolarni, ayniqsa, ijtimoiy masalalarni hal etishda faol fuqarolar, nodavlat-notijorat tashkilotlari ishtirok etishmoqda-ku. Demak, korruptsiyaga qarshi kurashda ham NNTlar faol bo'lmog'i lozim. Ammo bu jarayon bizda hali

boshlang'ich bosqichda deb aytishimiz mumkin. Xalqaro va xorijiy tajribaga ko'ra rivojlangan mamlakatlarda fuqarolar davlat idoralari ustidan fuqarolik nazoratini juda faol amalga oshiradi. Davlat hokimiyati organlari mustaqil NNTlarni jamoatchilik nazoratini amalga oshirishida har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi.

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 14-moddasiga muvofiq, “Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, nodavlat-notijorat tashkilotlari va fuqarolar:

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi;

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishda ishtirok etishi;

korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikning ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi;

korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritishi;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi mumkin”.

Shuningdek, “nodavlat-notijorat tashkilotlari ushbu moddada nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish maqsadida idoralararo komissiya va hududiy idoralararo komissiyalar faoliyatida, shuningdek, davlat organlari huzuridagi ishchi guruhlar, komissiyalar va jamoat-maslahat organlari faoliyatida qonunchilikda belgilangan tartibda ishtirok etadi”.

Bugun O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari, xususan, nodavlat notijorat tashkilotlari demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda, fuqarolarning o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarish, ularning ijtimoiy, ijtimoiy-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashmoqda.

Masalan, yaqinda “O'zbekistonda ochiqlik va shaffoflik” tahlil markazi, ya'ni korrupsiya va shaffoflikni o'rganadigan mustaqil NNT ro'yxatdan o'tdi. Markazning asosiy maqsadi – jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabat shakllanishiga ko'maklashish hamda davlat boshqaruvida ochiqlik, shaffoflik va hisobdorlik mexanizmlarini takomillashtirishdan iborat. To'g'ri, bu NNT endi o'z faoliyatini boshladi, ammo bu ijobiy tendensiya. Ushbu yo'nalishdagi NNTlar ko'payishi va ularni qo'llab-quvvatlash zarur.

“Yuksalish” umummilliy harakati tomonidan respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarga baho berishga bag'ishlangan 100 nafar xorijiy va mahalliy ekspertlar ishtirok etgan global ekspertlik so'rovi natijalari ham shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston ravnaqiga eng katta to'siq bo'layotgan muammo bu aynan korrupsiyadir. So'rovda qatnashgan ekspertlarning deyarli barchasi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada kuchaytirish zarurligini ta'kidlaganlar.

“Yuksalish” umummilliy harakati tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini qo'llab-quvvatlash borasida ham bir nechta yo'nalishda loyihalar amalga oshirildi. Xususan, avvalo, bu – sohalar kesimida korrupsiyaviy xatarlarni chuqur tadqiq qilish yo'nalishi.

Bu yo'nalishda “Yuksalish” umummilliy harakati, Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligi, “Mintaqaviy muloqot” xalqaro nodavlat-notijorat tashkiloti hamkorligida “Antikorrupsion laboratoriyalar” faoliyati yo'lga qo'yildi.

Loyihaning maqsadi keng jamoatchilikni jalb etgan holda korrupsion xatarlar yuqori bo'lgan sohalarda chuqur tahlillar o'tkazish, sohada korrupsiyaga barham berish uchun qonunchilik va tartib-tamoyillarni o'zgartirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Bunda laboratoriya ob'yekti sifatida tanlangan sohaning aniq bir mavzusi belgilab olinadi va korrupsion zanjirning barcha bo'g'inlari tadqiq qilinib, asl sabablari va mohiyati aniqlanadi.

Dastlab "Antikorrupsion laboratoriyalar"ning ilk mavzusi sifatida maktab ta'limiga birinchi sinfga qabul qilish jarayonlari tanlab olingan edi. Loyiha doirasida O'zbekiston Respublikasining 14 ta hududida jami 114 ta o'rta ta'lim maktablarida maktab direktorlari, birinchi sinf o'qituvchilari va o'quvchilarning ota-onalari ishtirokida so'rovlar o'tkazildi. Ilk natijalarning ko'lami juda ham keng. Hozirgi paytda to'plangan ma'lumotlar umumiy lashtirilib, tahlil qilinmoqda. Tahlil natijalariga ko'ra, korrupsiya xatarlari bo'yicha keng qamrovli hisobot va tavsiyalar ishlab chiqilib, Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi, Milliy kengash va parlamentga taqdim etilishi rejalashtirilgan. Fikrimizcha, fuqarolik jamiyati va ekspertlar ishtirokidagi shunday laboratoriyalarning qamrovini kengaytirish va ko'proq sohalarni qamrab olish orqali salmoqli natijalarga erishish mumkin deb hisoblaymiz.

Ikkinchi yo'nalish korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha fuqarolik jamiyati institutlari tashkiliy salohiyatini oshirishdan iboratdir.

Loyihaning maqsadi – davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatida korrupsiyaviy xatarlarni aniqlash va barham berishda mahalliy jamoatchilik, fuqarolik jamiyati institutlari salohiyatini oshirishdir.

Harakat tomonidan shu kunga qadar 30 ga yaqin vazirlik va idoralar, mahalliy hokimiyatlar huzuridagi jamoatchilik kengashlarining jamoatchilik monitoringini amalga oshirish bo'yicha ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus treninglar o'tkazildi, grantlar berildi. Bu boradagi eng yaxshi tajribalar mahalliy darajaga tatbiq etilmoqda. Natijada, ko'ryapmizki, jamoatchilik kengashlari a'zolari – faol fuqarolar va nodavlat sektor vakillari davlat idoralari va mahalliy hokimiyatlar faoliyati ustidan samarali monitoring o'rnatayotgani, jamoatchilik eshituvlarini o'tkazib kelayotgani, aniqlangan kamchiliklar yuzasidan mahalliy kengashlar va huquq-tartibot organlariga ma'lumotnoma yoki monitoring hisobotlarini kiritish amaliyotlari tobora ko'paymoqda. Bugungi kunda Xorazm, Qashqadaryo va Farg'ona viloyatlarida jamoatchilik kengashlarining faoliyatini namuna sifatida o'rganish mumkin bo'lgan tajribalardan deb hisoblaymiz.

"Yuksalish" umummilliy harakatining ushbu yo'nalishdagi yana bir muhim loyihalaridan biri bu – mahalliy jurnalistlar va blogerlarning salohiyatini oshirishga qaratilgan media-maktablar hisoblanadi. Ushbu media-maktablarda jurnalist va blogerlarning surishtiruv salohiyatini oshirishga qaratilgan treninglar o'tkazib kelinmoqda. Shu paytga qadar media-maktablarda 150 dan ziyod mahalliy jurnalist va blogerlar ishtirok etishdi.

Shuningdek, harakat tomonidan tashkil etilgan nodavlat-notijorat tashkilotlari maktablarida ham nodavlat sektor vakillarini davlat idoralari faoliyati ustidan jamoatchilik monitoringini amalga oshirish bo'yicha seminar-treninglar o'tkazilib, ularga zarur ko'nikmalar, huquqiy va metodik maslahatlar berib borilmoqda. Ushbu NNT maktablarida ayni paytga qadar 100 dan ziyod nodavlat tashkilotlar ishtirok etdi.

Ushbu illatga barham berishda davlat hamda nodavlat tashkilotlarining, umuman, jamoatchilik sa'y-harakatlarining hamohangligi, uyg'unligi talab etiladi. Ya'ni korrupsiyaga qarshi kurashish umummilliy harakatga aylansagina, bu boradagi ishlar samarali bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, korrupsiyaga qarshi kurashish jarayoniga fuqarolik jamiyati institutlarini yana-da kengroq jalb qilish uchun quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha fuqarolik jamiyati tarmoqlarini yaratish, ularni davlat tomonidan moddiy-moliyaviy, siyosiy-huquqiy va zarur instrumentlar bilan ta'minlab borish;

- xalqaro donorlar hamda davlat tomonidan ajratilayotgan subsidiya va grantlarda fuqarolik jamiyati institutlarini nazarda tutuvchi jamoatchilik nazorati komponenti bo'lishi shart;

- asosiy faoliyati korrupsiyaga qarshi tizimli kurashish bo'lgan nodavlat-notijorat tashkilotlarining faoliyatini qo'llab-quvvatlash, bunday NNTlar sonini oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

- korrupsiyaga qarshi kurash yo'nalishida sohalar bo'yicha tadqiqotlarni izchil o'tkazib borish, chuqur tahlilga asoslangan qarorlarni qabul qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu borada "Antikorrupsion laboratoriyalar" faoliyati ijobiy asos sifatida xizmat qilishi mumkin;

– mahalliy darajada (joylarda) fuqarolik jamiyati institutlari va fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi salohiyatini hamda vakolatlarini oshirishga kengroq e'tibor qaratish lozim;

– joylarda davlat hokimiyati idoralari tomonidan mahalliy NNTlar uchun grantlar va ijtimoiy buyurtmalarni yo'lga qo'yish orqali davlat va nodavlat institutlar hamkorligini kuchaytirish (xalqaro tajribaga ko'ra korrupsiyani oldini olishda muhim omil hisoblanadi).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev lavozimga kirishishi bo'yicha tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqida ta'kidlaganidek, "Lekin hammamiz yaxshi tushunamizki, korrupsiya balosiga qarshi faqat davlat-huquqiy choralar bilanгина kurashib bo'lmaydi. Buning uchun butun jamiyatimizda, avvalo, yoshlar ongida bu illatga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish, barcha sog'lom kuchlarni birlashtirish hal qiluvchi ahamiyatga ega".

MEHMON

Vladimir Kozin: “Islohotlar kompleks tarzda olib borilishi hamda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish masalalarini qamrab olishi kerak”*



* Birlashgan Millatlar Tashkiloti Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasining Korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishidagi mintaqaviy maslahatchisi, xalqaro ekspert

Copyright © 2021 V. Kozin, litsenziat O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi. Bu asar [Creative Commons «Attribution» \(«Atributatsiya»\) 4.0](#) shartlari asosida tarqatilgan.

IQTIBOS KELTIRISH TARTIBI:

Kozin, V. 2021. Vladimir Kozin: “Islohotlar kompleks tarzda olib borilishi hamda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish masalalarini qamrab olishi kerak”. Uzbekistan Anti-Corruption Digest. 1, 1 (dek. 2021), 33–36.

DOI: <https://doi.org/10.47689/uacd-2181-3345-vol1-iss1-pp37-41>



Hozirda O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida bir qator o'zgarishlar, yangiliklar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, so'nggi ikki yilda bu o'zgarishlar konseptual va institututsional ekanligi bilan ahamiyatlidir.

Ushbu islohotlarga xalqaro tashkilotlar va ekspertlarning bahosi, o'zgarishlarning xalqaro mezonlarga qanchalik mos ekanligi, umuman, korrupsiyaga qarshi kurashishdagi so'nggi xalqaro tendensiyalar ko'pchilikni qiziqtirishi tabiiy.

Shu boisdan jurnalda “Mehmon” sahifasi mavjud va uning bu galgi mehmoni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasining Korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishidagi mintaqaviy maslahatchisi, xalqaro ekspert Vladimir Kozin.

Vladimir Kozin - Jorj Vashington huquq maktabi va Moskva davlat xalqaro munosabatlar instituti bitiruvchisi, faoliyati davomida Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Jahaon Savdo tashkiloti tuzilmalarida faoliyat yuritgan.

So'nggi yillarda jahon hamjamiyatida korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi umumiy tendensiyalar haqida fikringiz.

- Korrupsiyaga qarshi kurash hatto uning darajasini minimallashtirishga erishilsa ham, har doim dolzarb bo'lib qoladi. Zero, korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi sa'y-harakatlarning har qanday zaiflashuvi faqat uning kuchayishiga olib keladi. So'nggi paytlarda xalqaro hamjamiyat bu boradagi faoliyatini faollashtirganini kuzatmoqdamiz.

Yaqinda Bosh Assambleyaning korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish sohasidagi muammolar va chora-tadbirlarga bag'ishlangan maxsus sessiyasining o'tkazilgani hamda Korrupsiyaga qarshi kurashuvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlarning Global operativ tarmog'i (GlobE Network) tashkil etilgani buni tasdiqlaydi.

Korrupsiyaga qarshi kurash jahon hamjamiyatining dolzarb muammosidir. O'z navbatida unga qarshi kurash ham rivojlangan, ham rivojlanayotgan mamlakatlarning hamisha kun tartibida turadi.

Rivojlanayotgan davlatlar misolida korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha qanday islohotlar e'tiboringizni tortdi va qaysi jihatlarga e'tibor qarata olasiz?

–Rivojlanayotgan mamlakatlar sharoitida islohotlar korrupsiya bilan bog'liq muammolarning to'liq ko'lamini hisobga olishi juda muhimdir. Islohotlar kompleks tarzda olib borilishi hamda korrupsiyaning oldini olish hamda unga qarshi kurashish masalalarini qamrab olishi kerak. Bu borada siyosiy iroda va malakali kadrlarga ega bo'lish, shuningdek, muhim ijtimoiy qadriyat sifatida korrupsiyani rad etish tushunchasini joriy etish juda muhim.

Amaliy nuqtayi nazardan korrupsiyaga qarshi kurashda eng katta muvaffaqiyatga odatda, fuqarolik jamiyati va biznes bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'ygan va ular faollarini nafaqat korrupsiya to'g'risida ma'lumotlarni qidirish va oshkor etishga, balki ochiq ma'lumotlarni tahlil qilishga, shuningdek, qonunchilik bazasini va, xususan, iqtisodiy faoliyatni tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirishga jalb etishga muvaffaq bo'lgan davlatlar erishadi. Iqtisodiy sohada normativ-huquqiy qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilish bosqichida fuqarolik va ishbilarmonlar hamjamiyatlarining manfaatdor tomonlari bilan samarali tashkil etilgan ochiq muloqot innovatsiyalarning afzalliklari va xarajatlarini, shu jumladan, korrupsiya bilan bog'liq xarajatlarni batafsilroq aniqlash imkonini beradi. Agar bunday muloqot natijasida sifatliroq va shaffofroq qarorlar qabul qilinsa, ularni amalga oshirishda hukumat maksimal darajada shaffoflikni ta'minlasa, fuqarolar va biznesning davlatga ishonchi yanada ortadi. Bundan tashqari,

ularning yashirin iqtisodiy faoliyatni qisqartirishga tayyorligi ortib boradi, bu esa soliq tushumlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, korrupsiyaga qarshi kurash global jarayon bo'lib, xalqaro hamkorlik muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu munosabat bilan rivojlanayotgan mamlakatlarning korrupsiyaga qarshi kurashdagi o'rni qanday, bu borada xalqaro standartlarni joriy etishning dolzarbligi nimadan iborat?

–Bu boradagi xalqaro standartlar hozirda dunyoning deyarli barcha davlatlarini qamrab olgan Korrupsiyaga qarshi BMT Konvensiyasida allaqachon belgilangan. Rivojlanayotgan mamlakatlar ushbu Konvensiyadan xalqaro hamkorlikning huquqiy asosi sifatida faolroq foydalanishlari kerak. Afsuski, bu borada hali qilinadigan ishlar ko'p.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda samarali boshqaruvning ilg'or tajribasini joriy etish bo'yicha katta tajriba to'plangan, shuningdek, bu borada zarur xalqaro standartlar bazasi shakllangan. Samarali boshqaruvning ilg'or tajribalarini to'g'ri qo'llashni boshlagan rivojlanayotgan davlatlar avvallari korrupsiya domiga singib ketgan resurslarni o'z rivojlanishi uchun haqiqatda muhim bo'lgan sohalarga yo'naltirila boshlagani va ulardan mas'uliyatli, oqilona va shaffof foydalanayotganining o'zi uchungina o'zlarining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini tezlashtira oladilar.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasining xalqaro samarali boshqaruv standartlari, davlat xizmatchilarini tanlov asosida ishga qabul qilish mexanizmlarini joriy etish, ularning daromadlarini deklaratsiyalash, xizmat vazifalarini bajarishda manfaatlar to'qnashuvi xatarini kamaytirish va boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish borasidagi sa'y-harakatlarini faqat olqishlash mumkin.

Korrupsiyaga qarshi kurash huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, preventi choralari ko'rish va jazoning muqarrarligini ta'minlashga qaratilgan elemehtlardan tashkil topgan jarayondir. Agar korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonini yaxlit 100% deb oladigan bo'lsak, korrupsiyaga qarshi kurashish elemehtlarini (foizda) qay tartibda belgilagan bo'lar edingiz?

Bu masala bo'yicha aniq urg'ularni joylashtirish juda qiyin. Ushbu unsurlarning har biri korrupsiyaning oldini olishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, korrupsiyaga qarshi islohotlarning muayyan davriga qarab, ularning foiz ulushi o'zgarishi mumkin. Korrupsiyaga qarshi siyosatning sa'y-harakatlarini, ushbu sohalarning har birini birgalikda rivojlantirishga qaratish muhimroqdir.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ham korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida bir qator islohotlar amalga oshirildi. Ushbu bosqichda Siz eng konseptual deb hisoblagan islohotlarni sanab o'ta olasizmi?

Darhaqiqat, O'zbekistonda bu boradagi jiddiy o'zgarishlarni ko'rib turibmiz. Avvalo, siyosiy iroda mavjudligi va yuqorida tilga olingan barcha yo'nalishlarda katta ishlar amalga oshirilayotganini ta'kidlash o'rinlidir, bu tendensiyalar davom etsa, albatta, ijobiy natijaga olib keladi. Yuqorida ta'kidlaganimdek, davlat organlarining shaffofligi, ularning, shuningdek, davlat xizmatchilarining jamiyat oldidagi hisobdorligini oshirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar muhim o'rin tutadi, chunki ular har bir qarorni qabul qilish vaqtida ochiq tahliliy jarayon bilan birga, jamiyat va biznes bilan muloqotni ta'minlaydigan platformani yaratadi va qarorlarni bajarish bosqichida - bajarilgan ishlar bo'yicha hisobotni ta'minlaydi. Bu fuqarolik jamiyati faollariga davlat organlari faoliyati samaradorligini mustaqil nazorat qilish, nazorat va huquqni muhofaza qiluvchi organlar e'tiborini eng shubhali va xatarli operatsiyalarga qaratish imkonini beradi.

Qonun hujjatlari va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish mexanizmlarini kuchaytirish orqali norma ijodkorligi va qonun ijodkorligi mexanizmlarini takomillashtirish borasidagi sa'y-harakatlar ahamiyati bundan kam emas. BMTGJBBning bu boradagi tavsiyalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining so'nggi qarorlarida o'z ifodasini topganini mamnuniyat bilan qayd etishimiz mumkin.

Respublikada olib borilayotgan, davlat xizmatchilarining vakolatlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvining oldini olishga imkon beruvchi huquqiy bazani

shakllantirish borasidagi sa'y-harakatlar alohida e'tiborga sazovor. Uning natijalarini kuzatish va tahlil qilish kerak. Huquqni qo'llash amaliyoti va amaldagi ta'sirini hisobga olgan holda innovatsiyalarni qonun hujjatlari darajasida mustahkamlash mumkin bo'ladi.

O'zbekistonda qabul qilinayotgan ko'plab yangiliklar ijro etilishi mumkinligi va real ta'sir ko'rsatishi imkoniyatlari nuqtai nazaridan munozaralarni davom ettirishni talab qiladi. Shu munosabat bilan huquqni qo'llash amaliyotini monitoring qilishni davom ettirish va uning asosida BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi moddalariga muvofiq, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni jinoyilashtirishni ta'minlaydigan yanada barqaror qonunchilikni shakllantirish juda muhim.

Siz O'zbekiston va uning islohotlariga befarq emassiz. Ko'rib turganingizdek, 2020-yilda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurash siyosatini muvofiqlashtirish va davlat siyosatini yuritish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi tashkil etildi. Agentlik faoliyatining asosiy yo'nalishi korrupsiyaning oldini olish, ya'ni profilaktika mexanizmlarini kuchaytirishdan iborat. Bu turdagi idoralar qaysi davlatlarda samarali ishlaydi va O'zbekistondagi mavjud vaziyatdan kelib chiqib, bu yo'l qanchalik to'g'ri?

Agentlikning tashkil etilishi korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha samarali institutsional tizimni shakllantirish jarayonida muhim qadamdir. Darhaqiqat, turli xil modellar mavjud. Ba'zi mamlakatlarda shunga o'xshash idoralar faoliyat ko'rsatsa, boshqalarida korrupsiyaga qarshi kurashish organlari korrupsiyaning oldini olish va huquqni muhofaza qilish funksiyalarini birlashtiradi. Shuni ham ta'kidlash joizki, korrupsiyaning oldini olish bo'yicha maxsus organlari mavjud bo'lmagan va tegishli vazifalar boshqa yo'llar bilan hal qilingan davlatlar ham mavjud. Agentlikka korrupsiyaning oldini olish sohasida muvofiqlashtiruvchi funksiyalar va keng vakolatlar berilgani amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida mantiqiy qadam bo'lib ko'rinadi.

O'zbekistonda kelgusi yildan boshlab davlat xizmatchilarining daromadlarini deklaratsiyalash tizimi joriy etiladi. Rivojlanayotgan mamlakatlar misolida korrupsiyaning oldini olishda ushbu tizim qanday rol o'ynaydi? Ushbu tizimni samarali amalga oshirish uchun nimalarga e'tibor berish kerak?

Davlat xizmatchilarining daromadlarini deklaratsiyalash tizimi davlat boshqaruvi faoliyatining ochiqligini ta'minlash, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik, shuningdek, korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlarini muvaffaqiyatli qo'llashning zarur shartidir. Daromadlarni deklaratsiyalash tizimini joriy etayotgan rivojlanayotgan mamlakatlar, albatta, korrupsiyaga qarshi kurashda yaxshiroq natijalarga erishmoqda. Ushbu tizimning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun yetarli huquqiy baza hamda institutsional tizim va resurslarga ega bo'lish zarur.

8. Sizningcha, korrupsiya holatini baholash bo'yicha yetakchi xalqaro reytinglar mamlakatlardagi korrupsiya darajasini qanchalik to'liq ochib bera oladi?

So'nggi yillarda O'zbekistonda bunday reyting va indeksning barqaror o'sishi kuzatilayotgan bo'lsa-da, reytinglarda ijobiy natijalar haqida hozircha gapira olmaymiz. Bu vaziyatni yaxshilash uchun yana nima qilish kerak?

Biz ushbu sohada o'rinlar va reytinglardan foydalanishni istisno qiluvchi, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasini amalga oshirishni kuzatish mexanizmining asosiy hujjatlarida mavjud tamoyillardan kelib chiqamiz.

Korrupsiya amalda u yoki bu shaklda dunyoning barcha mamlakatlarida mavjud. Shu bilan birga, mamlakatlar iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti, tarixiy yo'li, madaniyati, dini va boshqa omillar o'laroq, bir-biridan keskin farq qiladi. Shuning uchun korrupsiyaga qarshi kurash sohasida o'rinlar va reytinglar/indeksning joriy etilishi xolis bo'lishi va murakkab voqealikni to'liq ifodalashi qiyin.

Ta'kidlash joizki, korrupsiyaga qarshi kurash bu musobaqa emas, balki davlat institutlari, fuqarolik va tadbirkorlik hamjamiyatlarining uzluksiz, izchil va har tomonlama sa'y-harakatlarini talab qiladigan muntazam ishdur.

Korrupsiyaga qarshi kurashda kelajakda qanday yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim deb o'ylaysiz?

Bunday yo'nalishlar huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish orqali, jumladan, yoshlar bilan ishlash, korrupsiyaga qarshi ta'lim va korrupsiyani mutlaqo rad etish darajasini kuchaytirishni o'z ichiga olishi mumkin. san'at, adabiyot, madaniyatning eng yorqin va ommabop nomoyondalarini jalb qilish ulkan salohiyatga ega bo'lib, ular o'z asarlari orqali yoshlar qalbiga kirib borishi va vijdotsizlikni, har qanday holatda ham boyib ketish tashnaligini rad etuvchi, halollik, ochiqlik va sog'lom raqobat ruhini rag'batlantiruvchi ichki tamoyillar va xatti-harakatlar stereotiplarini shakllantirishga hissa qo'shishi mumkin.

UZBEKISTAN ANTI-CORRUPTION DIGEST

DAYJEST

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH TIZIMI TAKOMILLASHTIRILISHI MUNOSABATI BILAN O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING AYRIM QONUN HUJJATLARIGA O‘ZGARTISH VA QO‘SHIMCHALAR KIRITISH TO‘G‘RISIDA”GI QONUN QABUL QILINDI.



Qonun bilan quyidagi o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi:

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi axborotni xabar qiluvchi shaxslar va ularning yaqin qarindoshlari davlat himoyasida bo‘ladi;
- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi axborotni xabar qiluvchi shaxslar

to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xizmat sirini tashkil etadi;

– xabar qiluvchi shaxslar hamda ularning yaqin qarindoshlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga xabar qilganligi sababli tajovuz qilishga, shuningdek, ish beruvchi tomonidan ularning mehnatga oid huquqlari buzilishiga yo‘l qo‘yilmaydi;

– korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi Milliy hisobotmi ishlab chiqish tartibi belgilandi;

– huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining vakolatlari belgilandi;

– agentlik xodimlariga o‘z vakolatlari doirasida jazoni ijro etish muassasalari va qamoqda saqlash joylariga moneliksiz kirish, zarur hujjatlar bilan tanishish huquqi berilishi belgilandi.

**Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi
matbuot xizmati**

PREZIDENTNING "NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR VA ULARNING LOYIHALARINI KORRUPSIYAGA QARSHI EKSPERTIZADAN O'TKAZISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA"GI QARORI QABUL QILINDI.

Qaror bilan quyidagilar belgilandi:

– qurilish, sog'liqni saqlash, oliy ta'lim va davlat xaridlari sohalaridagi normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish natijasida aniqlangan korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlandi;

– amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar bosqichma-bosqich to'liq korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkaziladi;

– NHHlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazishda jamoatchilik, ilmiy tashkilotlar va mustaqil ekspertlar keng jalb qilinadi.



**Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi
matbuot xizmati**

AGENTLIK DIREKTORINING "KORRUPSIYAGA QARSHI ICHKI NAZORAT TUZILMALARI FAOLIYATI TO'G'RSIDAGI NAMUNAVIY NIZOMNI TASDIQLASH TO'G'RSIDA"GI BUYRUG'I QABUL QILINDI.



Nizom bilan ichki nazorat tuzilmalari o'z faoliyatida bevosita tashkilotning birinchi rahbariga (kuzatuv kengashiga) bo'ysunishi belgilandi.

Shuningdek, ichki nazorat tuzilmasi rahbarlari tegishli tashkilot tomonidan Agentlik bilan birgalikda o'tkaziladigan ochiq tanlov asosida ishga qabul qilinishi belgilandi.

Quyidagilar Nazorat tuzilmalarining asosiy vazifalari sifatida ko'rsatib o'tildi:

– tashkilotning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatini takomillashtirish;
– tashkilotda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish;

– tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samarali ishlashini ta'minlash va nazorat qilish;

– korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni olib borish.

**Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi
matbuot xizmati**

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI, VILOYATLAR VA TOSHKENT SHAHAR KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH HUDUDiy KENGASHLARI FAOLIYATI TASHKIL ETILDI.

2021 yilning 22-sentabr – 15-oktabr kunlari 14 ta hududda Korruptsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashlari ta'xis majlislari tashkil etildi.

Ta'xis majlislarida hududiy Kengash a'zolaridan tashqari OAV, Milliy Kengash a'zolari va Agentlik rahbariyati ishtirok etdi.

Yig'ilishlarda agentlik rahbariyati tomonidan mamlakatimizda korruptsiyaga qarshi kurashish siyosatining ustuvor yo'nalishlari, hududlardagi korruptsiyaviy holatlar tahlili, hududiy Kengash a'zolarining asosiy vazifalari to'g'risida to'xtalib o'tildi.

Milliy Kengash a'zolari tomonidan esa hududiy kengashlarning davlat xaridlari, budjet mablag'lari sarfi, "Korruptsiyasiz soha" loyihasi ijrosi, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati instituti vakillari bilan hamkorlikdagi aloqalari to'g'risida ma'lumotlar berib o'tildi.

**Korruptsiyaga qarshi kurash agentligi
matbuot xizmati**



"O'ZBEKISTON BIZNES HAMJAMIYATIDA HALOLLIK" BIZNES FORUMI O'TKAZILDI.

Joriy yilning 30-noyabr kuni "O'zbekiston biznes hamjamiyatida halollik" biznes forumi o'tkazilib, unda 100 dan ortiq turli sohalarda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlar va biznes vakillari, vazirlik va idoralar, OAV, jamoatchilik va xalqaro tashkilotlarning vakillari hamda xorijiy ekspertlar ishtirok etdi.

BMTning Korruptsiyaga qarshi konvensiyasi talablari asosida "O'zbekistonda biznesning korruptsiyaga qarshi kurashish Xartiyasi" ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

**Korruptsiyaga qarshi kurash agentligi
matbuot xizmati**